



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



40110102

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi kasbi

O'QUV DASTURLARI TO'PLAMI

Toshkent – 2022

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIMNING

**40110102.- Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
kasbi bo'yicha**

Kasbiy faoliyatda xorijiy til fan

O'QUV DASTURI

Kvalifikasiya(lar) nomi: Tarbiyachi

O'quv rejadagi tartib raqami: 1.01

Ajratilgan soat: 100

O'quv dasturi pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti pedagogika 110 000 sohasi yo'nalishlari bo'yicha o'quv metodik birlashmasining 2022 yil " 29 " avgustdagi 6- sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.**

| | |
|--|--|
| Tuzuvchilar: Ermatova Jamila Ismailovna | Urganch davlat universiteti ingliz tili va adabiyot kafedrasida professori |
| Atajanova Surayyo Raimbayevna | Urganch davlat universiteti ingliz tili va adabiyot kafedrasida katta o'qituvchisi |
| Axmedova Ugiljon Kuronboyevna | Urganch davlat universiteti ingliz tili va adabiyot kafedrasida tayanch doktoranti |
| Ismoilova Dilmira Ilhamovna | Toshkent pedagogika kolleji ingliz tili fani o'qituvchisi |
| Taqrizchilar: Irisqulov Miravaz Tursunovich | O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori |
| Maxfirat Abdullayeva | A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti xorijiy tillar kafedrasida mudiri |

1. O'quv dasturining umumiy talablari

| | |
|--------------------------------------|---|
| O'quv dasturi nomi: | Kasbiy faoliyatda xorijiy til |
| O'quv rejadagi tartib raqami: | 1.01 |
| Ajratilgan soat | 100 |
| Dasturning maqsadi | O'quvchilarning muloqot uslublarini yaxshilash orqali real hayotiy imkoniyatlarini oshirish, ularda ta'lim va kasbi haqidagi bilimlarini ingliz tilida ifodalash ko'nikmalarini chuqurlashtirish, matnlar bilan ishlash, yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratadi. O'quvchilarga yangi leksik va grammatik hodisalardan tarkib topuvchi nutq namunalari egallashlarida yordam berish orqali ularning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirish hamda ularni shu fan bo'yicha chuqurroq o'rganishga tayyorlash. |
| O'zlashtirish natijalari | <ul style="list-style-type: none">• Ingliz tilida o'z fikrini tushuntira oladi;• Kasb faoliyati mobaynida MT yoshidagi bolalar bilan ingliz tilida suhbatlasha oladi;• so'z boyligi oshadi,• nutqi ravonlashadi. |
| Bilimlar | <ul style="list-style-type: none">• ta'limga oid mavzularni rejalashtirish;• sodda yo'riqnomalarni tushuna olishi va ularga amal qilishi;• sodda savollar va gaplarni; she'rlar va hikoyalar, qo'shiqlarni tushuna olishi;• raqamlar, hisob-kitobni bilish va ularni hayotga qo'llash;• ma'lumot so'rash va ma'lumot bera olish;• sodda xabarlarni, masalan oddiy xatlar, elektron xatlarni tushuna olish;• kundalik hayotga oid mavzular(shaxsiy ma'lumot, oila haqida ma'lumot, bo'sh vaqtni o'tkazish);• ijtimoiy hayotga oid mavzularni;• ta'limga oid mavzularni rejalashtirish;• gapirish(salomlashish, o'zini tanishtirish, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish, ma'lumot olish va berish, uzr so'rash, tabriklash, taklif qilish va taklifni rad etish);• yozish (husnixat, orfografiya, chet tillarini barcha tovushlarini aniq talaffuz eta olish); |

| | |
|---|---|
| | <ul style="list-style-type: none"> • shaxsiy qiziqish va kasb-hunarga oid sodda dasturlarni • his tuyg'ularni ifodalash va ularga javob qaytarish; |
| Ko'nikmalar | <ul style="list-style-type: none"> • ishga yoki har kunlik hayotiga taaluqli mavzudagi so'zlar bilan o'z ma'nosida ishlatilgan nutqni tushuna olishi; • undagi umumiy ma'no va detallarga e'tibor qaratishi,; • nutq ravon va tanish shevada bo'lishi; • tilga olinadigan ish, o'qish, dam olish kabi tanish mavzulardagi adabiy tildagi ravon nutqini tushunish; • o'z sohasiga aloqador tanish mavzularda o'ziga ishonch bilan muloqotga kirisha olish; • fikr almashishi, ma'lumotni tekshirishi yoki tasdiqlashi, odatdan tashqari mavzularda so'zlasha olish; • madaniyat, kino, kitoblar haqida; sayohat qilishga o'xshash holatlarda so'z boyligining ko'p qismini ishlata olishi; • tanish mavzularda tayyorgarliksiz so'zlashishi, fikr bildira olishi; • o'yinlar tashkil qila olishi; • o'zi qiziqqan mavzudagi matnlarni bemalol tushuna olishi; • o'z kasbi, yoshi, qiziqishini qamrab olgan matnlar bilan ishlay olishi; • 25-250 so'zdan iborat kasbiga oid matnlar tuza olishi. |
| O'quv rejasiga muvofiq bog'liq bo'lgan boshqa o'quv dasturining nomi | <ul style="list-style-type: none"> • Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari; • Davlat talablari va MTT o'quv dasturi; • Kasbiy faoliyatda hayot faoliyati xavfsizligi • Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari; • Maktabgacha ta'lim pedagogikasi; • Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi; |
| O'qitishni tashkiliy shakli | <p>N – Nazariy ta'lim;</p> <p>A – Amaliy ta'lim;</p> <p>NA- Nazariy va amaliy ta'lim birgalikda tashkil etiladi</p> <p>M- Mustaqil ta'lim</p> <p>MX- Maxisus xonada o'tkaziladigan mashg'ulot.</p> |
| Dasturga qo'yilgan talab | Majburiy |

| | |
|---|--|
| O'qitish tili | Guruhda belgilangan o'qitish tili asosida |
| Baholash tartibi | Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida |
| O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash | Yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy, nazariy, mustaqil topshiriq |

2. O'quv dastur mazmuni

| № | Mavzular nomi | Mavzuning qisqacha mazmuni | Jami | O'qitishning tashkiliy shakli |
|----------|---|---|-------------|--------------------------------------|
| 1 | MTMdagi bolalarda ingliz tilini tutgan o'rni, maqsad va vazifalari | Maktabgacha yoshdagi bolalarni ingliz tiliga o'rgatishning maqsad va vazifalari. Bolalarni ingliz tiliga o'rgatishning o'rni va zaruriyati. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash. Bolalarda ingliz tili bo'yicha nutq, muloqot o'qish va yozish malakalari tayanch kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratish. | 2 | A |
| 2 | Maktabgacha ta'lim sohasida xorijiy tilning o'qitish metodikasi | Maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tili bo'yicha ta'limiy tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish yo'llari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarining nutq va til kichik sohasida bolalarning yosh davrlariga nisbatan xorijiy tilni bilishga qo'yilgan talablar asosida bolalarni xorijiy tilni bilish, nutqida xorijiy so'zlarni qo'llashga o'rgatish metodlari. Ota-onalar bilan bolani tilga o'rgatishda hamkor ishlarini olib borish. | 4 | A |
| 3 | Introducing yourself (O'zingizni tanishtiring) | Mavzuga oid yangi so'z va iboralarni o'rganish va ularni og'zaki nutqda bimalol qo'llay olish. Talaba o'zini tanishtiradi va ilk muloqotga kirishadi. | 2 | A |
| 4 | My kindergarden (Mening bog'cham) | Mavzuga oid yangi so'z va yangi grammatik strukturani og'zaki nutqda qo'llashni o'rganadi | 2 | A |

| | | | | |
|----|--|--|---|---|
| 5 | My friends (Mening do'stlarim) | Mavzuga oid yangi lug'at va grammatik qoidalarni asosiy 4 ko'nikma bo'yicha ishlatishni o'rganadi | 2 | A |
| 6 | We are family | Mavzu bo'yicha suhbat, oila a'zolari va ularning kasblari to'g'risida lug'atni faollashtirish. Shu mavzu bo'yicha kerak bo'lgan grammatik strukturani og'zaki nutqda qo'llashni o'rganadi. Bundan tashqari oila inson hayotining muhim bo'g'ini ekanligini tushunib olishadi | 4 | A |
| 7 | Uzbekistan is my Motherland. (Uzbekiston mening Vatanim.) | Mavzuga oid yangi so'zlarni o'rganish, gaplar tuzish, nutq qismlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish, har xil turdagi jummalarni tuzish. "O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i"ni chizib tasvirlash. | 4 | A |
| 8 | O'zbekistonning milliy ramzlari | Mavzuga oid yangi so'zlar va iboralarni o'rganish. O'zbekistonning milliy ramzlari haqida ma'lumot olish va ular haqida ingliz tilida gapira olish. | 2 | A |
| 9 | My city (Mening shahrim) | Mavzuga oid yangi lug'at va grammatik qoidalarni asosiy 4 ko'nikma bo'yicha ishlatishni o'rganadi. O'zi yashab turgan shahri haqida ma'lumotga ega bo'ladi va dars davomida uni yangi so'zlardan foydalanib ifoda eta oladi. | 2 | A |
| 10 | Loyiha "My home" | Talabalar mavzu bo'yicha ma'lumotlar yig'ishadi va posterli taqdimot tayyorlashadi. Loyiha ishida o'zi, oila a'zolari, uyi yashab turgan mahallasini kengroq yoritib berilishi kerak | 2 | A |
| 11 | Seasons/ months/week (Fasllar/oylar/hafta) | Ingliz tilida fasllar, oylar va haftalar almashinuvi haqida tushuncha berish (yozilishi, o'qilishi, talaffuz etilishi) va nomlanishini o'rgatish. | 4 | A |
| 12 | Autumn vibes. (Kuz bo'yoqlari.) | O'zbekistonda kuz fasli. Tabiatda kuz faslidagi o'zgarishlar, mavzu haqida ingliz tilidagi 15-20 ta so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish bo'yicha bilim berish o'rgatish. Grammatik qo'shimchalardan foydalanib gaplar tuzish. | 2 | A |

| | | | | |
|----|---|--|---|---|
| 13 | Autumn holidays. (Kuzgi bayramlar.) | Kuz faslidagi bayramlar nomlari va ular haqida ingliz tilida bilim berish. Mavzuga oid grammatik mashqlar bajarish. "Turnip" (Sholg'om) ertagi stenariysi ustida ishlash va uni sahnalashtirish. | 2 | A |
| 14 | Fruits and vegetables. (Mevalar va sabzavotlar.) | Mavsumiy mevalar va sabzavotlarning ingliz tilida talaffuz etilishi va yozilishi haqida bilim berish. Bolalarda mantiqiy fikrlarni rivojlantirish maqsadida "Bog'da biz nimani o'stiramiz?" -mavzusidagi slaydli albomdan foydalanib ularda so'z boyligini boyitish. | 4 | A |
| 15 | Etiquette at the table (Ovqatlanish odobi) | Talabalarda ingliz tilida ovqatlanish mavzusi bo'yicha lug'at boyligi va gap strukturasi tuzishni o'rgatibgina qolmasdan, ularda ovqatlanish etikasini ham shakllantirish maqsad qilib belgilanadi. | 2 | A |
| 16 | Daily plans. (Kundalik rejalar.) | Kunlik ishlarni rejalashtirishni o'rganish, jadval tuzish. Tarbiyachi va amaliyotchi mashg'uloti. Qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi rejasini tuzish, kun tartibini tuza olish. | 4 | A |
| 17 | Professions. (Kasblar.) | Ingliz tilida kasblar haqida ma'lumot berish. O'quvchi o'z tanlagan kasbidan kelib chiqib gaplar tuza olishi, rasmlar bilan mashqlar bajarish. Kichik guruhlarda ishlanadi, rolli o'yinlar o'tkaziladi. | 2 | A |
| 18 | Types of transports. (Transport turlari.) | Mavzu bo'yicha ma'lumot olish, transport turlari: yengil va yuk tashuvchi, suv osti, yer usti va havoda parvoz qiluvchi transportlarni ingliz tilida bilish. | 2 | A |
| 19 | Road traffic safety. (Yo'l harakati xavfsizligi.) | Yo'l belgilari, svetofor va uning chiroqlari haqida tushuncha berish (yozilishi, o'qilishi, talaffuz etilishi), svetofor va uning chiroqlari, ranglarini ingliz tilida bilish, mashqlar bajarish. | 2 | A |
| 20 | Loyiha ishi "Autumn in Uzbekistan" (O'zbekistonda Kuz) | Talabalar O'zbekistonda kuz mavzusida videoli taqdimot tayyorlashadi. Unda kuz faslida ob-havoning qanday bo'lishi, tabiatning go'zal manzaralari va kuz faslida yetib pishiladigan meva-sabzavotlar yoritib berilishi kerak. Sinf 3 | 2 | A |

| | | | | |
|----|---|--|---|---|
| | | yoki 4 guruhga bo'linib ishlashadi. | | |
| 21 | Likes and dislikes (Yoqtiradigan va yoqtirmaydiganlarim) | Talaba o'zi yoqtirgan va yoqtirmagan narsalarni ingliz tilida bemalol so'zlay oladi. Hozirgi oddiy zamonning ishlatilish o'rnini o'rganadi. | 4 | A |
| 22 | Types of body. (Tana turlari.) | Tana turlari, ularni ingliz tilida aytilishi:bosh sohasi va tana a'zolari. Savol javob orqali mustahkamlash | 2 | A |
| 23 | Winter clothes. (Qish.Qishki kiyimlar.) | Qishki kiyimlar va ularning turlari haqida ingliz tilida ma'lumotga ega bo'lish. "Kiyim do'koni ", "Kiyimlar uchun javon" bolalar o'yinlarini o'ynash. Mavzuga oid 15-20 ta yangi so'zlar berish. Mavzuga oid: "Ready to play in the snow", "Mittens" she'rlarini o'rgatish. | 4 | A |
| 24 | Winter (Qish) | Qish fasli, uning manzaralari ,qor parchalari haqida ingliz tilida ma'lumotga ega bo'lish, mashqlar bajarish. Slaydlar orqali rasmlarni tasvirlash. | 2 | A |
| 25 | Winter games. (Qishki o'yinlar.) | Qishki o'yinlar,uning turlari haqida ingliz tilida bilish.Yangi so'zlardan foydalanib gaplar tuzish,mashqlar bajarish. Qish haqida turli topishmoqlar topish,qish faslini tasvirlash. | 2 | A |
| 26 | Winter fairy-tales. (Qish ertaklari.) | Qisqa hikoyalar,ularni yangi so'z birikmalaridan foydalanib tuzishni o'rgatish, ma'nolarini ingliz tilida tushuntirish,mavzu haqida ma'lumot berish. | 2 | A |
| 27 | The New Year holiday. (Yangi Yil bayrami.) | Mavzu haqida ma'lumot berish. Yangi yil bayrami, uni qanday nishonlash va boshqa davlatlarda nishonlanishi haqida ingliz tilida ma'lumotga ega bo'lish, mashqlar bajarish. | 2 | A |
| 28 | Loyiha ishi Winter activities (Qishki o'yinlar) | Talabalar qishki o'yinlar mavzusida broshyura tayyorlab kelishadi va taqdimot qilishadi. Broshyura asosan qishki bolalar o'yinlarining yoritib berilishiga bag'ishlanadi. | 2 | A |
| 29 | Wonderful world. | Yangi mavzu bilan slayd asosida | 2 | A |

| | | | | |
|----|---|--|---|---|
| | (G'aroyib dunyo.) | tushuntirish, har xil metodlardan foydalaniladi,yangi so'zlardan foydalanib mashqlar bajariladi, rasmlar asosida gaplar tuziladi. S/R o'yin"Dunyo bo'ylab sayohat". | | |
| 30 | The animals. (Hayvonlar.) | Ushbu mavzu to'liq tushuntirilib hayvonlar va ularning turlari (yovvoyi,uy hayvonlari)ga ajratib o'rgatish, ingliz tilida so'zlardan foydalanib gaplar tuzish, qisqa hikoyalar tuzish, rasmlardan foydalanib mashqlar bajarish. | 4 | A |
| 31 | Insects. (Hashoratlar.) | Hashoratlar nomlari va ularning talaffuzini o'rgatish. Ularni foydali va zararli turlariga(useful insects , harmful insects) ajrata olish,yangi so'zlardan foydalanib mashqlar bajarish. | 2 | A |
| 32 | Keep the Earth! (Sayyorani saqla!) | Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atini boyitish, mustahkamlash va faollashtirish. Mavzuga oid yangi (15-20 ta)so'zlarni (o'qilishi,talaffuz etilishi)ni o'rgatish , | 2 | A |
| 33 | Spring in our country. (Yurtimizda bahor.) | Yurtimizda bahor mavzusi ,uning qanday kirib kelishi, tabiat hodisalari haqida o'rganish, gaplar tuzish. Slaydlar orqali tasvirlashni o'rganish, mashqlar bajarish. | 2 | A |
| 34 | Flowers and trees in Spring. (Bahorda gullar va daraxtlar) | Mavzu asosida gaplar tuza olish, bahor gullari nomlarini o'rganish (o'qilishi, talaffuz etilishi)ni o'rgatish: M:Rose, Tulip, Jasmine, Lily,Rosemary, Lotus, Lavender, Sunflower, Daisy ... gullarini ingliz tilida o'rganish,ularning ranglarda ifodalash, "My favorite flower"-yoqtirgan guli haqida qisqacha gapira olish. Mavzuga oid yangi (15-20 ta)so'zlarni (o'qilishi,talaffuz etilishi)ni o'rgatish, mavzuga oid she'r va ashula o'rgatish: "Flowers", "The pink flower", "Garden" | 2 | A |
| 35 | Spring games/songs. (Bahor o'yinlari/qo'shiqlari.) | Bolalarda bahoriy o'yinlar orqali sog'lomlashtirish va tabiatga chiniqtirishni , bahorga oid qo'shiqlarni o'rgatish. Yangi so'zlardan o'yinlarda foydalanish. | 2 | A |

| | | | | |
|--------------|--|---|------------|---|
| | | Bolalarda bahoriy o'yinlar orqali sog'lomlashtirish va tabiatga chiniqtirish | | |
| 36 | Mother's day. (Onajonlar bayrami.) | Ikki guruhda ishlash, bayramona qo'shiq she'rlarni o'rganish, guruh bo'lib mashqlar bajarish. Multimediya va slaydlardan foydalanib mavzuga oid qo'shiq ijro etish. | 2 | A |
| 37 | Navruz holiday | Talaba Navro'z bayramida bo'ladigan ishlar haqida ma'lumotga ega bo'ladi va buni ingliz tilida gapira oladi. Mavzuni turli xil sh'er va qo'shiqlar bilan mustahkamlash | 2 | A |
| 38 | Memory Day. (Xotira kuni.) | Xotira kuniga bag'ishlangan ingliz tilidagi qisqa she'r va qo'shiqlarni o'rganish, gapirib berish Tadbirlar tayyorlash va senariylar tuzish. Tashabbuskorlikni o'rganish, ijodkor bo'lish. | 2 | A |
| 39 | My favorite book. (Mening sevimli kitobim.) | Mening sevimli kitobim mavzusida berilgan so'zlardan, so'z birikmalaridan foydalanib qisqacha insho yozish. | 2 | A |
| 40 | Loyiha ishi Hello Summer! (Salom Yoz!) | Salom Yoz mavzusi bo'yicha ppt (animatsiyali slaydlar)li taqdimot tayyorlash. Unda yozda bolalarning vaqtini samarali o'tkazishga oid tavsiya va yo'riqnomalar, shuningdek yozgi o'yinlar haqida ma'lumot beriladi. | 4 | A |
| Ja'mi | | | 100 | |

MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI

| No | Mavzular nomi | Mustaqil ishning bajarilish shakli | Soat |
|----|---------------------------------------|------------------------------------|------|
| 1 | Biografiya (mening ideal o'qituvchim) | Yozma | 2 |
| 2 | Mening eng yaqin do'stim | Insho | 2 |
| 3 | Mening kunim | Rasmi poster | 4 |
| 4 | Men yoqtirgan maqola | Maqola tahlil qilish | 2 |
| 5 | Mening sevimli faslim | Rasmi poster | 4 |
| 6 | Men bo'sh vaqtni qanday o'tkazaman | PPT | 2 |
| 7 | Men yoqtirgan retsept | Video presentatsiya | 2 |

| | | | |
|----|---|--|------------|
| 8 | O`zbek bayramlari | Broshyura tayyorlash | 4 |
| 9 | Qiziqarli hikoyalar | Muhokama | 2 |
| 10 | Dunyoni o`zgartirgan 10 ta kashfiyot | PPT | 2 |
| 11 | Xatarli kasb egalari bilan suhbat | Intervyu | 2 |
| 12 | Milliy musiqa janrlari | Poster | 2 |
| 13 | Bolalar dunyosiga sayohat | Video presentatsiya | 2 |
| 14 | Qo`g`irchoq teatri uchun qo`g`irchoq yasash | Realia | 4 |
| 15 | Bolalar uchun gimnastika o`yinlarini ishlab chiqish | PPT | 2 |
| 16 | Bolalarning to`g`ri ovqatlanishi | Menu yaratish | 2 |
| 17 | Bolalarga meva va sabzavotlarni o`rgatish | Meva va sabzavot maketlarini tayyorlash | 4 |
| 18 | Birinchi yordamda tibbiy savodxonlik | Tibbiyot qutichasi bilan tanishtirish(realialar) | 2 |
| 19 | Men sevgan ertak | Bolalarga oid ertak va hikoyalar tahlili | 2 |
| 20 | Bolalar she`riyati | Bolalar she`riy kitoblarning tahlili | 2 |
| | Jami: | | 50 soat |

3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash

O`quv dasturi davomida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan bilim va ko`nikmalar ichki nazorat bo`yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari og`zaki, yozma, savol-javob, test, amaliy, nazariy, mustaqil topshiriqlardan iborat bo`lib, ular o`quv elementini o`zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo`yilgan maqsadga hamohang bo`lishi lozim.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Irisqulov A., Butayev Sh. Inglizcha-o'zbekchavao'zbekcha-inglizcha lug'at. Toshkent 2009
2. Sarah Cunningham & Peter Moor with J C Carr. New Cutting Edge. Pre-Intermediate. Student's book. Longman 2005
3. [Liz and John Soars](#). New Headway Pre-Intermediate Fourth Edition Oxford, 2016
4. Raymond Murphy. Essential Grammar in Use. Elementary, Cambridge University Press, 2015
5. Azar Betty Schramper. Basic English Grammar, Longman 1996

6. Michael McCarthy, Felicity O'Dell, English Vocabulary in Use Elementary, 2017
7. Jeremy Harmer. How to teach English. Pearson Education Limited, 2010
8. Jeremy Harmer. How to teach writing. Pearson ESL, 2004
9. Thornbury S. How to teach grammar. Longman Pearson. 2002
10. Thornbury S. How to teach vocabulary. Longman Pearson. 2002
11. Thornbury S. How to teach phonetics. Longman Pearson. 2002
12. Macmillan Essential Dictionary for Learners of English

Qo'shimcha adabiyotlar

1. SH Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021 yil 19 maydagi PQ- 5117-son
3. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari" O'zRXTB. MMXQTMORO`MM 2017
4. "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent. O'zRXTB. MMXQTMORO`MM. 2016 yil
5. F.Vahobova, Sh.B.Nabixanova, D.T Karimova "Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim asoslari" pedagogika kolleji o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2015
6. "Ilk qadam" Maktabgacha Ta'lim Muassasasining Davlat o'quv dasturi
7. E.G'oziyev. "Psixologiya" Darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2008 51-64-bet.
9. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-Faylasuflar-2013, 2017. 77-88, 291-323-bet

Internet manbalari

1. <http://www.pbs.org/newshour/extra/teachers/lessonplans/media/podcasting>.
2. http://esl.about.com/od/englishlistening/a/intro_podcasts.htm
3. www.teachingenglish.org.uk
4. www.onestopenenglish.com
5. www.tesol.org
6. www.tefl.com
7. www.teachertrainingvideos.com
8. www.learnenglish.org.uk
9. www.macmillanenglish.com/readers

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIMNING

**40110102.- Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
kasbi bo'yicha**

Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari fan

O'QUV DASTURI

Kvalifikasiya(lar) nomi: Tarbiyachi

O'quv rejadagi tartib raqami: 1.02

Ajratilgan soat: 40

Toshkent– 2022

O'quv dasturi pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti pedagogika 110 000 sohasi yo'nalishlari bo'yicha o'quv metodik birlashmasining 2022 yil " 29 " avgustdagi 6- sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.**

Tuzuvchilar: Rahmatullayeva – Toshkent pedagogika kolleji O'IBDO'
Lutfiya G'affarovna
Ibragimov Bobur Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi
Mansurovich

Taqrizchilar: Mehmonov Rustam – Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika
Yusuf o'g'li universiteti "Informatika va TAT"
kafedrasi katta o'qituvchisi
Niyazov Abduraxmon Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi
Raxmatovich

I. O'quv dasturining umumiy talablari

| | |
|--|--|
| Dastur nomi | Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari |
| Ajratilgan soat | 40 |
| Mavzular soni | 20 |
| Dasturning maqsadi | O'quvchilarga informatika va axborot texnologiyalarini kasbga yo'naltirilgan holda o'qitish, asosan ularning amaliy jihatlari haqida bilim berish, zamonaviy kompyuterlarning dasturiy ta'minoti, shu jumladan, amaliy va xizmat ko'rsatuvchi dasturlar bilan ishlash malakasini hosil qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z kasbiy faoliyatlarida unumli foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat |
| O'zlashtirish (o'qitish) natijalari | <p>Bo'lajak kichik mutaxassislariga informatika va axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida samarali foydalana oladigan darajada o'rgatish, shu sohada mukammal to'liq bilim berilishini ta'minlashdan iboratdir.</p> <p>Fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'ladilar;</p> <ul style="list-style-type: none"> - axborotni tashkil qilish va izlab topish, ajratib olingan axborotni tizimlashtirish, tarkiblantirish, umumlashtirish va tushunarli shaklga keltirishni bilishi; - kompyuterlarga xizmat qilishning asosiy qoidalari, ularga xizmat qiluvchi dasturlar va ulardan foydalana olishni bilishi; - kompyuter viruslaridan saqlanish usullari, antivirus dastur vositalarining imkoniyatlaridan foydalana olishi; - fayllarni arxivlash usullari va arxivator dasturlar bilan ishlashni bilishi; - kasbiy sohasiga oid sodda masalalarning modellarini tuza olishi; - multimedia texnologiyasi va telekommunikatsiya vositalarini bilishi va ulardan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi; |
| Bilimlar | <ul style="list-style-type: none"> -kompyuterni axborotga ishlov beruvchi vosita sifatidagi rolini, kompyuter dasturlari va ularning axborotlarga ishlov berish jaryonidagi o'rnini, shaxsiy kompyuterlar tasnifi va tarkibini, tizimli blok va uning tuzilmasini, kompyuterda ma'lumotlarni tashkil etish va saqlashni; - MTTda o'tiladigan turli mashg'ulotlar uchun didaktik o'yinlar yarata olishni; - elektron darsliklardan foydalana olishni; - internet tarmog'idan kasbiy sohaga mos ma'lumotlarni topa olishni; - maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang'ich kompyuter savodxonligini kasbiy faoliyatida samarali foydalana oladigan darajada o'rgatishni; - internetdan axborotni izlab topish, ajratib olingan axborotni tizimlashtirish, tarkiblantirish, umumlashtirish va tushunarli shaklga keltirishni; - kompyuter o'yinlari, didaktik o'yinlar yordamida bolalarda kompyuterda ishlashni o'rgatishni; - kompyuterdagi mavjud dasturlardan foydalanib, bolalarning yoshiga mos materiallar tayyorlay olishni; |

| | |
|---|---|
| | -multimediya texnologiyasi va telekommunikasiya vositalaridan foydalanishni. bilishi ; |
| Ko'nikmalar | <ul style="list-style-type: none"> -kompyuterning dasturiy ta'minotini o'rnatish; -WINDOWS operatsion tizimining yangi versiyalarida ishlay olish; -operatsion tizim va uning qobig'i ostida ishlovchi dasturlar bilan ishlay olish; -Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari bilan ishlay olish; -Kompyuterda axborotlarga ishlov berish, ma'lumotlarni tashkil etish va saqlash; -ofis dasturlari paketi va uning tarkibini, zamonaviy matn proessorlarining imkoniyatlaridan foydalana olish; -Kompyuterdagi amaliy dasturlardan foydalanib, mavzuga oid didaktik o'yinlar yaratish; -Internetdan va elektron darsliklardan foydalanib, kasbga doir ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlashi va mashg'ulot davomida qo'llash; -Maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlang'ich kompyuter savodxonligini amaliy ko'nikmalarini shakllantira olish; -Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yinli mashg'ulotlar orqali amaliy dasturlar bilan boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantira olish; -mutaxassisligiga oid multimediya texnologiyasi va telekommunikasiya vositalarini mashg'ulotlar davomida qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. |
| O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fanning nomi | MTTda boshlang'ich kompyuter savodxonligi |
| O'qitishning tashkiliy shakli | <p>N-nazariy ta'lim</p> <p>A-amaliy ta'lim</p> <p>NA- birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar</p> |
| Dasturga qo'yilgan talab | Majburiy |
| O'qitish tili | Guruhga tayinlangan dars tili asosida |
| Baholash tartibi | Joriy baholash tartibiga asoslanib |
| O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash | Og'zaki, yozma, test, individual va amaliy topshiriqlar bajarish |

2. O'quv dasturi mazmuni

| № | Mavzuning nomi | Mavzuning qisqacha mazmuni | Jami | O' qitishning tashkiliy shakli | Mustaqil ta' lim |
|--|--|---|------|--------------------------------|------------------|
| I BOB. Kirish. Axborot texnologiyalari asoslari | | | | | |
| 1 | Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari fani haqida tushuncha .Kompyuter bilan ishlashda texnika xavfsizligi | <p>Axborot, ma'lumot va bilim haqida tushuncha. Axborotli jarayonlar. Axborotni tasvirlash, saqlash, ishlov berish va uzatish. Axborotning sifat ko'rsatkichlari. Jamiyatda axborotli jarayonlar.</p> <p>Axborotlashgan jamiyat haqida tushuncha. Axborot madaniyati. Jamiyatni axborotlashtirishning huquqiy asoslari. Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizlari. Jamiyatning axborot resurslari.</p> <p>Axborot xavfsizligi, axboriy huquq va etika. Kasbiy faoliyatda axborotning roli va ahamiyati (turli kasbiy sohalar misolida).</p> <p>Kompyuter bilan ishlashda umumiy xavfsizlik qoidalari. Shaxsiy kompyuterda ishlashda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalar. Mehnat faoliyatini davomiyligi va dam olish jadvaliga rioya qilish.</p> | 2 | N | |
| II BOB. Kompyuter bilan tanishtirish | | | | | |
| 2 | Kompyuter va ularning axborotlarga ishlov berish jaryonidagi o'rni. Kompyuterning asosiy qurilmalari va tashqi qurilmalarning vazifalari | <p>Kompyuter axborotlarga ishlov beruvchi vosita sifatida. Kompyuter dasturlari va ularning axborotlarga ishlov berish jaryonidagi o'rni.</p> <p>Asosiy tizimli plata (ona plata), protsessor, kuller, asosiy va doimiy xotira, ovoz va video kartalari tuzilishi, vazifasi va ishlash prinsipi. Tizimli blok vazifasi va ishlash prinsipi. Monitor, klaviatura, sichqoncha qurilmalarini tizimli blokka ulash. Ularning turlari, vazifasi va ishlash prinsipi.</p> <p>Shaxsiy kompyuterning qo'shimcha qurilmalari tuzilishi, vazifasi va ishlash prinsipi. Qo'shimcha qurilmalarni shaxsiy kompyuterga ulash.</p> | 2 | N | |
| III BOB. Kompyuterning dasturiy ta'minotlari | | | | | |
| 3 | Shaxsiy kompyuterning dasturiy ta'minoti va uning turlari. Operatsion tizimlar. | <p>Shaxsiy kompyuterning dasturiy ta'minoti va uning turlari. Tizimli dasturiy ta'minot. Operatsion tizim. Zamonaviy operatsion tizimlar. WINDOWS operatsion tizimining yangi versiyalari va ularning imkoniyatlari. LINUX-operatsion tizimi, uning imkoniyatlari, qo'llanilish doirasi, xususiyatlari va</p> | 2 | A | |

| | | | | | |
|---|---|--|---|---|---|
| | | afzalliklari. | | | |
| IV BOB. Ofis dasturlarida ishlash | | | | | |
| 4 | Ofis dasturlari va ularning yangi imkoniyatlari. Matn muharrirlarida ishlash asoslari | Ofis dasturlari paketi va uning tarkibi. Zamonaviy matn protsessorlari va ularning imkoniyatlari. Gipersselkalar, rasmlar va murakkab jadvallar bilan ishlash. Sahifa parametrlarini sozlash. Matn bilan ishlash va chop etish. MS Word muharririda obyektlar bilan ishlash va litsenziyalash. Izoh qo'yish. Gipperhavolalarni qo'yish, tahrirlash va o'chirish. Word muharririda formula, obyekt, PDF bilan ishlash. | 2 | A | |
| 5 | Zamonaviy jadval protsessorlari va ularning imkoniyatlari. Taqdimot va uni yaratishning zamonaviy dasturiy ta'minoti | Zamonaviy jadval protsessorlari va ularning imkoniyatlari. Makroslar yaratish va ular bilan ishlash. Taqdimot va uni yaratishning zamonaviy dasturiy ta'minoti. | 2 | A | 2 |
| 6 | MS Power Point dasturning menyusi va uskunalar paneli. Prezentatsiya yaratish bosqichlari | MS Power Point dasturning menyusi va uskunalar paneli. Prezentatsiya yaratish bosqichlari. Power point dasturi va uning yangi imkoniyatlaridan lenta menyu qatorida ishlashni. Slaydlar ro'yxatini tashkil etish va uni tahrirlash. | 2 | A | |
| 7 | Slayd tuzilishini o'zgartirish va slaydlarga matn kiritish, obyektlarni joylashtirish va formatlash. Prezentatsiyaga maxsus effektlar qo'yish va namoyish etish | Slayd tuzilishini o'zgartirish va slaydlarga matn kiritish. Slaydlar ro'yxatini tashkil etish va uni tahrirlash. Microsoft Power Point murakkab animatsiyalar qo'yish. Slaydlar ketma-ketligini joyini o'zgartirish. Slaydlar bazalari bilan ishlash. Taqdimotga murakkab shakllar, diogrammalar, Smart Art tasvirlar qo'yish va ularni animatsiyasi. Prezi taqdimot yaratish. | 2 | A | 2 |
| V. BOB. Kompyuterda tasvirlar bilan ishlash asoslari | | | | | |
| 8 | Grafik obyektlar va ularni kompyuterda tasvirlash usullari Rastrli va vektorli grafikalar va ularning dasturiy ta'minotlari | Kompyuter grafikasi tushunchasi. Kompyuter grafikasi turlari. Grafik obyektlar va ularni kompyuterda tasvirlash usullari. Rastrli va vektorli grafikalar va ularning dasturiy ta'minotlari. Rastrli va vektorli grafikaning dasturiy ta'minotlari. | 2 | A | 2 |
| 9 | PhotoShop - rastrli grafik muharririda ishlash asoslari | Adobe Photoshop dasturining menyular qatori va uskunalar paneli bilan ishlash. Adobe Photoshop dasturida matnlar va grafik obyektlar bilan ishlash | 2 | A | 2 |
| 10 | CorelDraw - vektorli grafik muharririda ishlash | CorelDraw dasturi haqida ma'lumot. CorelDraw dasturining uskunalar paneli. Obyektlar bilan ishlash. Shakllar yasash. Ikki va | 2 | A | |

| | | | | | |
|---|--|---|---|---|---|
| | asoslari. Ikki va uch o'lchovli grafika | uch o'lchovli grafika haqida tushuncha. Kompyuter grafikasining texnik- dasturiy va infarmatsion asoslari hamda turkumlari | | | |
| 11 | Kasbiy faoliyatda grafik dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari | Kasbiy faoliyatda grafik dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari | 2 | A | |
| VI BOB. Amaliy dasturlar va ulardan turli kasbiy sohalarda foydalanish imkoniyatlari | | | | | |
| 12 | Elektron kitoblarni o'qish va tahrirlash: WinDjView dasturi interfeysi | *.PDF va *.PDD kengaytmasiga ega bo'lgan fayllarni ochish, chop etish. Katta hajmdagi ma'lumotlarni WinDjView dasturi yordamida hajmi kichraygan holatdagi elektron kitob yaratish dasturlaridan foydalanish. | 2 | A | |
| 13 | Skanerlangan ma'lumotlarni FineReader dasturi yordamida aniqlash va tahrirlash | ABBYY Fine Reader dasturiy ta'minotini o'rnatish. ABBYYFine Reader dastur inetrfeysi. ABBYY Fine Reader dastur oynasi. Asosiy menyu, uskunalar paneli. ABBYY Fine Reader dasturida ishlash | 2 | A | |
| VII BOB. Kasbiy faoliyatda amaliy dasturlardan foydalanish | | | | | |
| 14 | Maktabgacha yoshdagi bolalarga onatli va adabiyotini o'rgatishda Microsoft office dasturlaridan foydalanish | Maktabgacha yoshdagi bolalarga onatli va adabiyotini o'rgatishda Microsofr office dasturlaridan foydalanish. | 2 | A | 2 |
| 15 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish Microsofr office dasturlarining ahamiyati | Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish Microsofr office dasturlarining ahamiyati. | 2 | A | 2 |
| 16 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o'stirish Microsoft office dasturlarining o'rni. | Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o'stirish Microsoft office dasturlarining o'rni. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o'stirish Microsoft office dasturlarining o'rni | 2 | A | 2 |
| 17 | Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini o'rganishda qo'llaniladigan amaliy dasturlar | Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini o'rganishda qo'llaniladigan amaliy dasturlar. | 2 | A | 2 |
| 18 | Maktangacha yoshdagi bolalar badiiy-ijodiy va tasviriy faoliyatga o'rgatishda Microsoft office | Maktabgacha yoshdagi bolalar badiiy-ijodiy va tasviriy faoliyatga o'rgatishda Microsoft office dasturlaridan foydalanish. | 2 | A | 2 |

| | | | | | |
|---|---|---|-----------|---------------------|-----------|
| | dasturlaridan foydalanish. | | | | |
| 19 | Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy bilimga ega bo'lishida qo'llaniladigan kompyuter dasturlari. | Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy bilimga ega bo'lishida qo'llaniladigan kompyuter dasturlari. | 2 | A | 2 |
| VIII BOB. Kompyuterlarga xizmat ko'rsatish | | | | | |
| 20 | Kompyuter viruslari va ularni turlari .Antivirus dasturlari bilan ishlash . | <p>Kompyuter virusi, revizor dasturlar, doctor reizoplar, filtr dasturlar, resident dasturlari. Antivirus dasturlarining vazifasi. O'ziga xos xususiyatlari. Dastur yordamida ma'lumot xavfsizligini ta'minlash. Antivirus dasturiy ta'minot turlari. Detektor dasturlar, doktor dasturlar yoki "fag"lar, revizor dasturlar, vaksina yoki immunizator dasturlar.</p> <p>Antivirus dasturiy ta'minotini sozlash. Doimiy himoya, barcha fayllarni tekshirish, evristik analiz. Antivirus dasturini va bazasini avtomatik va qo'lda yangilash. Avtomatik skanerlash. Kasperskiy laboratoriyasida yaratilgan antivirus dasturiy ta'minoti. Foydalanuvchiga viruslardan, "shpion" dasturlaridan, rutiklardan, adwarelardan himoyalanih imkoniyatini beradi. Kaspersky Anti-Virus dasturini sozlash. Kaspersky Anti-Virus dasturining foydalanuvchi interfeysi. Kaspersky Anti-Virus dasturini himoya markazi, kompyuterni tekshirish, dastur va bazasini yangilash bo'limlarini sozlash.</p> | 2 | A | |
| | Jami: | | 40 | N-4 A-36 | 20 |

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi. Baholash usullari og'zaki, yozma, test, individual vazifalar, kichik guruhlar tomonidan bajarilgan topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

4. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
2. Sh.M. Mirziyoyev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.

3. Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2016.
4. Sh.M. Mirziyoyev " Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent – "O'zbekiston"-2017.
5. Sh.M. Mirziyoyev " Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" Toshkent – "O'zbekiston"-2017.
6. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
7. Sh.M. Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" Toshkent – "O'zbekiston"-2019
8. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
9. Sh.M. Mirziyoyev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
- 10.Sh.M. Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2016.
- 11.Sh.M.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent – "O'zbekiston"-2017.
- 12.Sh.M.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" Toshkent – "O'zbekiston"-2017.
- 13.Sh.M. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
- 14.Sh.M. Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" Toshkent – "O'zbekiston"-2019
- 15.Bolalar bog'chasida kompyuter savodxonligi. O'quv qo'llanma R.R.Boqiyev, R.Yu. Mehmonov, D.K.Husnitdinova Toshkent - 2010.
- 16.Informatika o'qitish metodikasi F.Zokirova.. Darslik. - 2005.
- 17.Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma-T.: Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M., "Nashr" 2009-368 b.
- 18.Kompyuter grafikasi va web-dizayn. Tavsiya etilgan o'quv qo'llanma. M.E.Mamarajabov., S.Q.Tursunov., L.M.Nabiulina Toshkent-2013 "Cho'lpon".
- 19."KOMPYUTER GRAFIKASI". SH.I.Razzoqov, SH.S.Yo'ldoshev, U.M.Ibragimov "Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma" «NOSHIR»-Toshkent-2013
- 20.Informatika va axborot texnologiyalari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik – T.: Sattorov A. "O'qituvchi", 2002 y.-256 b.
- 21.Office dasturlari seriyasidan "Microsoft EXCEL 2007/2010/2013" Boltayev B.J., A.R.Azamatov. Qiyoslamalar, yo'llanmalar, namunalar, mashqlar. AMALIY QO'LLANMA. "O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma II-nashr" "Tafakkur". Toshkent 2016. UO'K: 372.8.59(45) KBK: 45.262.86 M-18.
- 22.Office dasturlari seriyasidan "Microsoft WORD 2007/2010/2013" Boltayev B.J., A.R.Azamatov. Qiyoslamalar, yo'llanmalar, namunalar, mashqlar. AMALIY QO'LLANMA. "O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma II-nashr" "Tafakkur". Toshkent 2016. UO'K: 002.6(072) KBK: 74.263.2T-61.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. (O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari). – T.: "Sharq", 1998. -64 b.
 2. O'zbekiston Davlat ta'lim standarti: O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari. "Ma'rifat", N 86, 2000 yil 4 noyabr
 3. Axborot texnologiyalari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik – T.: Abduqodirov A.A., Xayitov A., Shodiev R. "O'qituvchi", 2002 y. – 148 b.
 4. ИНФОРМАТИКА. А.Б.Ахмедов, Н.И.Тайлақов. Дарслик сифатида тавсия этилган. Тошкент «ЎЗБЕКИСТОН» 2001.
 5. ИНФОРМАТИКА. Учебное пособие для учащихся профессиональных колледжей. ТАШКЕНТ - «ИЛМ ЗИЁ» - 2004.
 6. Informatika. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. G'.Yuldashev U.Yu, Boqiev R.R., Zokirova F.M G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2002 y.- 240 b.
 7. ИНФОРМАТИКА. Учебник для лицеев и колледжей. Ш.М.Камилов. ТАШКЕНТ - «ЎҚИТУВЧИ» - 2003.
 8. АХБОРОТ ИСТЕЪМОЛИ МАДАНИЯТИ. Илмий оммабоп нашр. Умиджон Қўшаев. «Extremum-Press» Тошкент-2013.
- Ushbu fanni o'qitishda turli axborot kommunikatsiya resurslaridan, hamda boshqa o'quv, ilmiy va uslubiy ma'lumotlar manbalaridan keng foydalaniladi.

Web saytlar:

<http://www.ziyonet.uz>
<http://www.ref.uz>
<http://www.timi.uz>
<http://www.tdtu.uz>
<http://www.tadi.uz>
<http://www.qnb.uz>
<http://www.google.ru>
<http://www.yandex.ru>
<http://www.vism.ru>
<http://www.crabo.ru>
<http://www.ilyarm.ru>
<http://www.floruzor.ru>
<http://www.osblog.ru>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIMNING

**40110102.- Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
kasbi bo'yicha
Davlat talablari va MTT o`quv dasturi fan**

O'QUV DASTURI

| | |
|--------------------------------------|------------|
| Kvalifikasiya(lar) nomi: | Tarbiyachi |
| O'quv rejadagi tartib raqami: | 1.03 |
| Ajratilgan soat: | 40 |

Toshkent – 2022

O'quv dasturi pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti pedagogika 110 000 sohasi yo'nalishlari bo'yicha o'quv metodik birlashmasining 2022 yil " 29 " avgustdagi 6- sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.**

| | | |
|----------------------|---|--|
| Tuzuvchilar: | Aripova S. M. Abdullayeva G.B. Fayzullayeva I.B. Kamalova M.R. | Toshkent pedagogika kolleji "Maxsus fanlar" kafedrasida o'qituvchilari |
| Taqrizchilar: | M.X Tadjiyeva M. Z. Fayzullayeva | Toshkent pedagogika kolleji direktori pedagogika fanlari nomzodi MTMRMQTMI "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi |

1.O`quv dasturi umumiy talablari

| | |
|--|--|
| Dastur nomi | Davlat talablari va MTT o`quv dasturi |
| Ajratilgan soat | 40 |
| Mavzularning soni | 18 |
| Dasturning maqsadi | Ta'lim oluvchilarga Davlat talablari va MTT o`quv dasturining maqsad, vazifalari va tamoyillarini, hujjat tuzilmasi, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni o`qitish va rivojlantirish uchun dasturning ustunligi haqida bilim berish |
| O`zlashtirish (o`qitish) natijalari | <ul style="list-style-type: none"> - O`zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari"ning tuzilmasi va asosiy qoidalari to`g`risida bilimlar shakllantiriladi; - "Ilk qadam" Davlat o`quv dasturining maqsadi, vazifasi, tamoyillarini o`rganadi; - "Ilk qadam" davlat o`quv dasturi, "Ilm yo`li" variativ dasturi bo`yicha ta'lim tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda kompetentlik yondoshuvni qo`llashni o`rganadi; - bola shaxsiga yo`naltirilgan ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi muhitni yaratish va rivojlanish markazlarini tashkil etish talablarini o`rganadi; - MTT ishiga oilalarni jalb qilish va oilalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlikni rejalashtirishni o`rganadi. |
| Bilimlar | <ul style="list-style-type: none"> - Vazirlar mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti to`g`risida" gi 802-sonli qarorining asosiy qoidalari; O`zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari"ning tuzilmasi va asosiy qoidalari; - O`zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari"ga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish; - Davlat o`quv dasturi hamda "Ilm yo`li" variativ dasturining maqsadi, vazifasi, tamoyillarini; - bolalarni o`qitish va rivojlantirishda kompetentli yondashuv; - o`quv –tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish va baholash; - MTTda rivojlanish markazlari faoliyatini tashkil etish; - oilalar bilan hamkorlik va ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish. |
| Ko`nikmalar | <p>Vazirlar mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti to`g`risida" gi 802-sonli qarorining asosiy qoidalari amalga oshirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo`llaniladigan ish shakllari, usullar va vositalarning bolalarning yosh, ruhiy va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini xisobga olish; - davlat o`quv dasturi va, bolalarni o`qitish va rivojlantirish uchun uning afzallik tomonlarini aniqlash; -davlat o`quv dasturi, "Ilm yo`li" variativ dasturi bo`yicha ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda kompetentlik yondoshuvni qo`llash; -bolaga shaxsiga yo`naltirilgan ta'lim jarayonida o`rgatuvchi muhitni yaratish va rivojlanish markazlarni tashkil etish; - MTT ishiga oilalarni jalb qilish va oilalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlikni rejalashtirish. |

| | |
|---|--|
| O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`liq bo`lgan fanning nomi | Maktabgacha ta`lim pedagogikasi “MTTda ta`lim-tarbiyaviy jarayonni va rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni tashkil etish” o`quv amaliyoti |
| O`qitishning tashkiliy shakli | N- nazariy ta`lim; A-amaliy ta`lim; NA-birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg`ulotlar |
| Dasturga qo`yilgan talab | Majburiy |
| O`qitish tili | Guruhga tayinlangan dars tili asosida |
| Baholash tartibi | Joriy baholash tartibiga asoslanib |
| O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash | Yozma, og`zaki, savol – javob, munozara, test, amaliy topshiriq. |

2.O`quv dasturi mazmuni

| № | Mavzuning nomi | Mavzuning qisqacha mazmuni | Jami | O`qitishni tashkiliy shakli | Mustaqil ta`lim |
|--|--|---|------|-----------------------------|-----------------|
| I. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari | | | | | |
| 1 | Maktabgacha ta`lim va tarbiyaning davlat standarti | “Maktabgacha ta`lim va tarbiyaning davlat standartining madsad va vazifalari, mazmun mohiyati, asosiy prinsiplari. | 2 | N | |
| 2 | Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablarini o`rganish | Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablarining umumiy qoidalari, maqsad va asosiy vazifalari, prinsiplari, tarkibi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablarida belgilangan beshta rivojlanish sohasi va ularning kichik sohalari | 2 | N | |
| 3 | Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzini shakllanish sohasi | “Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzini shakllanishi” sohasining mazmuni. Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzini shakllanishi sohasining kichik sohalari talablarini o`rganish. | 2 | NA | 1 |
| 4 | Ijtimoiy-hissiy rivojlanishi sohasi | “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasining mazmuni. Ijtimoiy hissiy rivojlanish sohasining kichik sohalari talablarini o`rganish | 2 | NA | 1 |
| 5 | Nutq, muloqot, o`qish va yozish malakalari sohasi | “Nutq, muloqot, o`qish va yozish malakalari” sohasining mazmuni . Nutq, muloqot, o`qish va yozish malakalari sohasinig kichik sohalari talablarini o`rganish. | 2 | NA | 1 |
| 6 | Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi | “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasining mazmuni. Bilish jarayonlarining rivojlanishi | 2 | NA | 1 |

| | | | | | |
|--|--|---|----------|-----------|----------|
| | | sohasining kichik sohalari talablarini o`rganish. | | | |
| 7 | Ijodiy rivojlanish sohasi | “Ijodiy rivojlanish” sohasining mazmuni. Ijodiy rivojlanish sohasining kichik sohalari talablarini o`rganish | 2 | NA | 2 |
| II. “Ilk qadam “ Davlat o`quv dasturi. | | | | | |
| 8 | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" Davlat o`quv dasturini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish | “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturining mazmun va mohiyati. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv | 2 | N | 1 |
| 9 | “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi asosida o`quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish | O`quv-tarbiyaviy jarayonda rejalashtirish turlari: yillik va haftalik mavzuviy reja. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi | 2 | N | 1 |
| III. MTT rivojlanish markazlarini tashkil etish | | | | | |
| 10 | “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturi asosida guruhlarda rivojlanish markazlarini tashkil etish | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlariga qo`yiladigan talablar. Bolalarning rivojlanish markazlaridagi mustaqil faoliyatini tashkil etishning mazmun-mohiyati. | 2 | N | 1 |
| 6 | Rivojlanish markazlarida "Kitob bilan do'stlashamiz", "Kitob tarixi" hafta mavzusida o'yinli ta'lim faoliyatini tashkil etish. | <p>MTT o'quv dasturida turli yosh guruhlarida "Kitob bilan do'stlashamiz", "Kitob tarixi" mavzuviy rejalashtirishni o'rganish va tahlil qilish. Til va nutq markazi uchun nutqni rivojlantirishga oid mavzularni tanlash. Variativ haftalik reja tuzish.</p> <p>Faoliyat ishlanmasini, jihozlarini tayyorlash, slaydalar tayyorlash, rivojlantiruvchi ta'limiy dasturlardan foydalanish. Markazlar faoliyatini o'tkazishga tayyorlanish va taqdimot qilish. Guruh bilan birgalikda mavzu bo'yicha o'yinli ta'lim faoliyatini tahlil qilish.</p> <p>Tavsiya etiladigan mavzular: Kitobcha yasash, sevimli kutubxonani yirik qurish-yasash materiallaridan yasash, Sevimli kitoblar bo'yicha shariyat kechasi, Ertaknamo shahar, Kitob do'koni, Kutubxona, Men yoqtirgan kitob, Adabiyotlar viktorinasi, Kitob xususiyatlari bilan tanishish, Mening sevimli ertak qahramonim, Bizning sevimli ertaklarimiz kabi mavzulardan foydalanish.</p> | 6 | A | 3 |
| | IV-bo'lim. | Ilm-fan va tabiat markazi | | | |
| 7 | "Kuz bo'yoqlari" oy mavzusi bo'yicha o'yinli ta'lim faoliyatini tashkil etish. | Turli yosh guruhlarda bolalarga tabiat obyektlarida ishlash, ularni taqqoslash, individual tashqi belgilardagi turli xil ta'lim vazifalarini hal qilishga imkon beruvchi, "Kuz bo'yoqlari" oy mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida o'yinli ta'lim faoliyatini tashkil etish. Mavzuviy rejalashtirishni o'rganish va tahlil qilish. Tabiat markazi uchun kuz mavzulari bo'yicha | 12 | A | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|----------|---|
| | | <p>o'yinlar tanlash. Variativ haftalik reja tuzish.</p> <p>Kichik va o'rta guruhlarda stol-bosma, predmetli, so'zli didaktik o'yinlar: «Nima bu?» "Kuz yaproqlari", "Biz va tabiat" "Uyda kim yashaydi?", "Mazasidan top", "Bir hil bargni top", "Paxtadan nima hosil qilingan?", "Zoologik Loto", "Botanik Loto", "Nima uchadi, yuguradi, suzadi, sakraydi", "Mevalarning rangini ayt va qo'y", "Ajoyib haltacha", "Bu kimning uychasi?." , "Jonli-jonsiz" , "To'rt fasl " , "O'simliklar" kabi kuz fasliga oid o'yinlar uchun materiallar tayyorlash va o'tkazish.</p> <p>Katta va tayyorlov guruhlarda ta'limiy, predmetli, so'zli, bolalarning bilimlarini kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan o'yinlar tanlash: "Dorivor o'tlar", "Inson va tabiat", "Nima bo'ladi, agar tabiatda ... yo'q bo'lsa", "Kuzdami, qishdami?" "Bu qachon bo'ladi?", "Savatda nima bor?", "Sabzavotlar do'koni", "Meva va mevalar", "Barglarni oling", "Bu kerak - kerak emas", "Bargiga qarab daraxtni top!", "Ta'midan yop!" "Huddi shu gulni top!", "Nimaning ovozi?", "Ovozidan top!", "Ustida-ostida", Nima qayerda yashaydi?" kabi.</p> <p>Kuz fasliga oid o'yinlar uchun materiallar tayyorlash va markaz faoliyatini tashkil etish.</p> | | | |
| 8 | "Qish" oy mavzusi bo'yicha o'yinli ta'lim faoliyatini tashkil etish. | <p>Turli yosh guruhlarda "Qish" oy mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida o'yinli ta'lim faoliyatini mavzuviy rejalashtirish bo'yicha o'rganish va tahlil qilish. Ilm-fan vatabiat markazi uchun qish fasliga oid o'yinlar tanlash. Qish, sog'lom tanda-sog'lom ruh, mavsumiy kiyimbosh va poyabzal, yangi yil nima? Hafta mavzulari bo'yicha variativ haftalik reja tuzish.</p> <p>Yosh guruhlada hafta "Qish. Konstitutsiya kuni" mavzusi bo'yicha markazlarda o'yinli ta'lim faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish.</p> <p>Ta'limiy, stol-bosma, predmetli, so'zli, harakatli, musiqiy didaktik o'yinlar: "Bu qachon sodir bo'ladi?", "Qo'lqopning juftini top", "Avval nima, keyin nima?", "Qishning rasmini to'plang", "Qish yaxshimi, yomonmi?", "Bu qachon sodir bo'ladi?", "Qo'limda nima yashiringan, top!", "Foydali-foydasiz", "O'z toshingni top", "Qorparchangni top", "Men bilaman...", "Hayvonlar, qushlar, baliq". "Hayvonni pastga qo'ying." , "Sumkada nima borligini bilasizmi?", "U qayerda o'sishini aniqlang" "Men qanday hayvonman?", "Nimadan yasalgan?", "Bahorda, yozda, kuzda", "Yeyish mumkin emas – yeyish mumkin" , "Foydali - foydasiz", "Gapni tugat", "4-si ortiqcha", "Havo, yer, suv" kabi o'yinlar ishlanmasini tuzish, materiallar tayyorlash.</p> | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Hafta mavzulari bo'yicha kichik guruhlarda markaz faoliyatini tashkil etish. | | | |
| 9 | <p>“Go’zal bahor” oy mavzusi, “O’simliklar bilan do’stlashamiz” hafta mavzusi bo’yicha tabiat markazida o’yinli ta’lim faoliyatini tashkil etish</p> | <p>Kichik va o’rta guruhlarda “Hayvonlar va qushlar bilan do’stlashamiz”, “O’simliklar bilan do’stlashamiz”, “Mavsumiy o’zgarishlar”, “Hasharotlar” hafta bo’yicha rivojlanish markazlarida o’yinli ta’lim faoliyati. Mavzuviy rejalashtirish bo’yicha o’rganish va tahlil qilish. Ilm-fan va tabiat markazi uchun o’yinlar tanlash, variativ haftalik reja tuzish.</p> <p>Hayvonlar, qushlar, o’simliklar haqida olgan bilimlarini mustahkamlovchi ta’limiy o’yinlar ishlanmasini tuzish, atributlar tayyorlash. Barcha markazlarda mavzu bo’yicha ta’lim jarayonini tashkil etish. Davlat talablari bajarilishini aniqlash.</p> <p>Quyidagi mavzularni taklif qilish: Uchib ketuvchi va qishlab qoluvchi qushlar Qush uyasi uchun nimalar kerak? Chalkashliklar Nima qayerda qishlaydi? Qushni soyasi (tasviri)ga qarab top! Yaxshi va yomon Bu qush ekanini isbotla! Nima – nimaning bolasi? Bu kimning uyi? Uchadi – uchmydi Nima ortiqcha? Qushni yasa! (geometrik shakllardan) Nima yo’qoldi Tabiatni asra! Qushlar oilasi Ovozidan top! Kabi ta’limiy o’yinlar ishlanmasini yozish, haftalar va rivojlanish markazlari bo’yicha loyihalash. Mavzuga ijodiy yondoshish.</p> <p>Katta va tayyorlov guruhlarda “Hayvonlar va qushlar bilan do’stlashamiz”, “Mavsumiy o’zgarishlar”, “Hasharotlar” hafta mavzusida rivojlanish markazlarida o’yinli ta’lim faoliyati. Mavzuviy rejalashtirish bo’yicha o’rganish va tahlil qilish. Ilm-fan vatabiat markazi uchun o’yinlar tanlash, variativ haftalik reja tuzish.</p> <p>Hayvonlar, qushlar, o’simliklar haqida olgan bilimlarini mustahkamlovchi ta’limiy o’yinlar ishlanmasini tuzish, atributlar tayyorlash. Barcha markazlarda mavzu bo’yicha ta’lim jarayonini tashkil etish. Davlat talablari bajarilishini aniqlash.</p> <p>Quyidagi mavzularni taklif qilish: “Men nimani tasvirladim, top!” “Bosh harfidan top!”</p> | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|----|---|--|---|---|---|
| | | <p>"Men bilaman...", "Hasharotlar". "Hasharotlarni ajrat." , "Ovozidan top!", "U qayerda yashaydi?" "Men qanday hasharotman?", "Bahorda, yozda, kuzda", "Foydali - foydasiz", "Gapni tugat", "Bu qachon sodir bo'ladi?", "To'rtinchisi ortiqcha", "Havoda, yerda, suvda" kabi o'yinlar uchun materiallar tayyorlash.</p> | | | |
| 10 | Kichik va o'rta guruhlarda eksperimentlar - amaliy tajribalar tashkil etish. | <p>Kichik va o'rta guruhlarda sensor idrok qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish. Bolalarni turli xil holatlarda suyuq va qattiq jismlarni (suv, qum, toshlar, havo) xususiyatlarini o'rganishga o'rgatish. So'rov natijalariga ko'ra bolalarni mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatish. Tajribalar o'tkazish orqali bolalarda tabiatga qiziquvchanlik, kuzatuv, aqliy faoliyatni rivojlantirish. Videoroliklar orqali mustahkamlash.</p> <p>Davlat talablarini o'rganish va yosh bosqichlari bo'yicha murakkablashuviga e'tibor berish. Tajriba va eksperimentlar mavzularini mavzuviy rejalashtirish bo'yicha o'rganish. Quyidagi mavzularni kichik va o'rta guruhlarda haftalik mavzular bo'yicha taqsimlash, maqsadi, o'tkazilishi, kutiladigan natijani yozish. Kerakli jihozlarni tanlash va amalda tashkil etib ko'rsatish.</p> <p>Tavsiya etiladigan mavzular: Bo'yoqlar bilan tajribalar; "Ranglarni ajrat!", "Rangidan top!", "Feyrverk" Havo bilan tajribalar; "Futbol" o'ynaymiz", "Kema uchiramiz" naychada puflash, "No'xotlar o'yini" Suv bilan tajriba o'tkazish; "Suvni bo'yash", O'simliklar qanday suv ichadi?", "Issiq va sovuq cuv" Tuz bilan tajribalar; "Eriydi, erimaydi", "Sho'r - ta'msiz" Qum va loy bilan tajribalar; "Qumdan shakllar yasash" Elektr zaryadlari bilan tajribalar; Boshqa jonsiz tabiat ob'ektlari bilan tajribalar; O'simliklar bilan tajribalar; Turli xil materiallar bilan tajribalar: shisha, oyna, qog'oz, yog'och, metall, sovun); Magnit bilan tajribalar.</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ko'ngil ochish va tajriba o'tkazish;</p> | 6 | A | 3 |
| 11 | MTTda tadqiqiy | Davlat talablaridan tadqiqiy bilish va samarali | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|----|---|--|---|---|---|
| | bilish va samarali refleksiv faoliyatni tashkil etish. | <p>refleksiv faoliyatni kichik sohasini o'rganish. "Ilk qadam" davlat dasturida turli yosh guruhlarida ilm fan va tabiat markazini o'rganish va loyihalash, kartoteka tuzish.</p> <p>Katta va tayyorlov guruhlarda bolalarni fikrlash, o'z-o'zini kuzatish, tushunish, o'z ishiining shartlari va natijalarini baholash qobiliyatini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish. Faoliyatni boshlashga muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish. Shu tarzda yechim izlashda guruhning birdamligi hissi paydo bo'ladi, mavjud vaziyatni tahlil qilishda aqliy qobiliyat faollashtirish. MTTda kognitiv tadqiqotlarni tashkil etish</p> <p>Bolalar uchun qiziqarli tajriba va eksperimentlar: Maks Lusher rangining o'ziga xos xususiyati, "Quyosh", « "Archa- kayfiyat daraxti", «Nishon», «Pantomima», "Idishdagi murabbo", refleksivekrani: "Svetofor", "Quyosh va bulutlar" "Odamlar" kayfiyat ekrani: kayfiyat belgilaridan foydalanish (kulgilar, yulduzcha, bayroqlar ...); (gul barglari, shar, lupa, kattalashtiruvchi oyna, suv shag'ami, siyoh, olov-havoni buzadi, uzumdan, tuxumdan suv osti kemasi, qattiq va yumshoq narsalar) havo, suv, tuz, qum va loy, jonsiz predmetlar (shar, yelpig'ich, oyna, baklajka...), o'simliklar, turli materiallar (oyna, shisha qog'oz, daraxt, temir, sovun), magnit bilan bolalar yoshiga mos eksperimentlar - amaliy tajribalar tanlash va tashkil etish.</p> | | | |
| | V-bo'lim. | San'at markazi | | | |
| 12 | San'at markazida "Asboblar va anjomlar" oy mavzusida ta'limiy jarayonni tashkil etish. | <p>Kichik va o'rta guruhlarda "Men va mening uyim. Xotira kuni", "Mebel. Milliy hunarmandchilik" mavzularida integratsiyalashgan ta'limiy jarayonni tashkil etish.</p> <p>Rivojlanish markazlarida o'yinli ta'limiy faoliyatni tashkil etish. O'quvchilarga bolalarni uy, undagi xonalar, mebel, turli xil jihozlar bilan tanishtirish, har bir xonani oz jinozlari bilan jihozlash, turli faoliyatlar asosida Xotira kuni, milliy hunarmandchilik haqidagi bilimlarini kengaytirish va uydagi xona nomlarini, mebel jihozlarning nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish va uy, xona, mebel jihozlarini chizish va boyashda, applikasiya, loy ishida turli usullarini ko'rsatish.</p> <p>Atrof olam haqidagi tasavvurlarini rasmda aks ettira olishni rivojlantirish</p> <p>Bolalarda o'zichizgan ramalarni tomosha qilish hissi uyiyo'otish. Ularganibatano'z munosabatini bildirish.</p> <p>Bajargan ishlarini taxlil qilishga o'rgatish. Hafta mavzulari bo'yicha variativ haftalik reja tuzish. Kichik guruh:</p> | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|----|--|---|----|---|---|
| | | <p>“Uycha” rasmi, applikatsiya “Rangli sharlar”, loy ishi “O’rdakcha”. “Mening shkafim” rasmi, applikatsiya “Dasturxonni bezatamiz”, loy ishi “Lagan yasaymiz”. O’rta guruh: Loyishi “Meninguyim”, applikatsiya “Uy”, rasm “Sevimliuy”. Jamoa bo’lib ishlash «Mebel» yelimlash, “Stul” loy ishi, “Tushlik stoli” rasmi.</p> | | | |
| 13 | <p>San’at markazida katta va maktabga tayyorlov guruhlarida ta’limiy jarayonni tashkil etish.</p> | <p>Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida “Idishlar. Milliy naqshlar”, “Maishiy buyumlar – bizning yordamchilarimiz” mavzularida integratsiyalashgan ta’limiy jarayonni tashkil etish. Rasm chizish uchun mustaqil material tanlash, rasmni berilishiga qarab varaqda tasvirni joylashtirishda kompozitsiya o’ylashga va bajarishga o’rgatish. Predmetlarni tegishli kattaligini tasvirlab idish chizash. Maishiy buyumlarni tasvirlash hamda qurish-yasashga o’rgatishda ham qalamlar ham bo’yoqlardan foydalanishni o’rgatish. Chegarasini qora qalamda chizib rangli qalamlar yoki bo’yoqlar yordamida bo’yash usulini qo’llash. Bolalarda go’zallik tushunchasini rivojlantirish, loydan o’yinchoqlar yasash va ularni bo’yashga o’rgatishda davom etish.</p> <p>Bolalarni qaychibilan mustaqil ishlash, kattalari yordamida ijodiy faoliyatda faolishtiroketishga undash. Hafta mavzulari bo’yicha variativ haftalik reja tuzish. Katta guruh: “Oshxona idishlari” rasmi (akvarel, rangli qalamlar), “Qo’qirchoq uchun idishlar” loy ishi, “Dazmol” rasmi, “Kompyuter” rasmi (akvarel, rangli qalamlar). Tayyorlov guruh: “Choy ichish uchun serviz” rasm chizish, “Tarelkani milliy naqshlar bilan bezash” applikatsiya, “Choynak” loy ishi. “Kompyuter” rasmi, “Termometr” kartondan qurish-yasash, loy ishi “Maishiy anjomlar”.</p> | 12 | A | 6 |
| | <p>VI-bo’lim.</p> | <p>Ilk qadam davlat dasturi bo’yicha iintegratsiyalashgan ta’limiy jarayonda ishlash va rivojlanish markazlarida ta’limiy jarayonni tashkil etish</p> | | | |
| 14 | <p>IMEN (TRIZ) metodi asosida ta’limiy jarayonni tashkil etish.</p> | <p>“TRIZ-IMEN metodi asosida ishlash” mavzusida integratsiyalashgan ta’limiy jarayonni tashkil etish. Rivojlanish markazlarida o’yinli ta’limiy faoliyatni tashkil etish. TRIZ (rus tilida: teoriya resheniya izobretatelskix zadach) ixtiro muammolarini yechish nazariyasi ekanligi haqida tushuncha. TRIZ-IMEN metodining maqsadi bolani tevarak olamni mustaqil ravishda anglab, undagi voqea-hodisalardan xulosa chiqarish, ixtiro etishga yo’naltirishdir.</p> <p>o’rgatish. Bolaning barcha faoliyati uning istagiga ko’ra</p> | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|--|--|---|--|--|--|
| | | <p>tashkil etilishi va ijodiy rivojlantirilishi.</p> <p>Markazlardagi ta`limiy faoliyat:</p> <p>Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi: “Bu uyda kim yashaydi?”, “Mebel kim uchun?”, “Men arxitektorman”, “Garaj”, “Mening uchar mashinam” birgina ob`yektini undan foydalanishning turli shart-sharoitlarini nazarda tutib konstruksiyalash;</p> <p>Qaysi detal qurish-yasash uchun ko`proq mos kelishini aniqlash;</p> <p>Qaysi usul bilan konstruksiyalash ko`proq maqsadga muvofiq ekanligini belgilash;</p> <p>Istiqbolda qurish-yasashni rejalashtirish ko`nikmalarini rejalashtirish.</p> <p>Turli narsalarni ikki teng qismlarga bo`lishni, olingan qismlarni «yarim», «ikkidan bir qism» deb atash.</p> <p>Narsalarni ko`z bilan chamalab, miqdori, kattaligi (uzun (qisqa), keng (tor), enli (ensiz), baland (past), qalin (yupqa) kabi namuna va unga teng bo`lgan bolalar uchun tanish narsalar yoki harakatlar natijasida qiyoslanuvchi narsalarning o`lchamini aniqlash.</p> <p>Syujetli-rolli o`yinlar va drammashtirish markazi:</p> <p>“Sholg`om polizda kichkina bo`lib o`sibdi”, “Bu teremokda kimlar yashaydi?”, “Zamonaviy-Zumrad va Qimmat”, “Men-Robot”-hikoya va ertaklarini yangi talqinda ixtiro qilib, rollarga bo`linib o`ynash va sahnalashtirish.</p> <p>“Tog` yon bag`rida karam sho`rva pishiramiz” (muammoli vaziyat) sujetli rolli o`yin -bolalarni faqat fantaziya qilish emas, balki ulaming dunyoning ikkilamchilik tomoni borligini anglash.</p> <p>IMEN usulidagi jumboqli o`yinlar orqali bolalar qobiliyatini o`stirish bilan birga, ularda hozir javoblik, fantaziya, ixtiro qilish va qiyin vaziyatdan to`g`ri yo`l topa olish kabi xususiyatlarni tarbiyalash.</p> <p>Til va nutq: “Tomchilar haqida ertak”, “Ur to`moq”, “Susanbil”ertagi; “Berkatilgan resurslar”, “Garoyib piyoda”-suhbatlar uyushtirib, o`rganilgan axborotlar tizimini qiyosiy tahlil etish, solishtirish, mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratishni, bolalarning so`z boyligini oshirish va faollashtirish.</p> <p>Bolalar bilan har bir mashg`ulot muammosi izlanish tomonlari qanday qilib? Qayerda?</p> <p>Nega? Nima uchun? Nima bilan almashtirish mumkin.</p> <p>Nimasi yahshi, nimasi yomon, nimasi foydali, nimasi noqulay, nima qilmoq kerak? Qanday foydalansa boladi? Qanday yo`l tutish kerak? Gul urug`i yerga</p> | | | |
|--|--|---|--|--|--|

| | | | | | |
|----|---|--|---|---|---|
| | | <p>tushadi, yomg'ir yog'adi, u o'sadi, shamol esadi v.hk savollarga fikrlab to'liq javob berish</p> <p>Ilm fan va tabiat markazi: Havoning, magnitning, elektrning xususiyatlari va ularning inson hayotidagi yaxshi-yomon, foyda-zarar tomonlarini bilan tanishtirishni; Havoning qayishqoqligi va ma'lum hajmi egallashi; Magnit uchlarining o'ziga tortishishi va o'zidan itarishi bilan tanishtirishni; Bolalarni o'zlari qurgan uycharini batareyka, lampochka, sim, viklyuchatel yordamida "elektrlatirishga" o'rgatishni;</p> <p>San'at markazi: "Shaklni davom ettir", "Bu shaklni nimaga o'xshatyapsan?", "Bu qanday o'yinchoq?", "Kayfiyatlar", "Mening kelajakdagi uyim", "Afsonaviy mashina", "Mening sevimli qo'g'irchog'im", "Gerbariydardan ixtiyoriy applikasiya ishini bajarishni; Loy ishi "Buni nimaga o'xshatyapsan?" ixtiroli, ijodiy ishlar bajarishni;</p> <p>Bolaga tayyor ish bermay, uning ongida borliqni anglatishga imkon uyg'otish.</p> <p>"Qani, sen nima deb o'ylaysan?" deya bolani o'zini o'ylashga, fikrlashga yo'naltirish.</p> | | | |
| 15 | <p>Kichik va o'rta guruhlarda "O'zbekiston - mening Vatanim" mavzusida ta'limiy jarayonni tashkil etish.</p> | <p>"O'zbekiston mening Vatanim" mavzusida integratsiyalashgan ta'limiy jarayonni tashkil etish.</p> <p>Rivojlanish markazlarida o'yinli ta'limiy faoliyatni tashkil etish. O'quvchilarga bolalarga tug'ilib o'sgan joylariga muhabbat va ularning Vatanim-O'zbekiston haqida bilim berish usullarini ko'rsatish. O'z shahar, qishloq, mahalla va ko'chasi haqidagi bilimlarni kengaytirish. Yashash joyidagi me'morchilik yodgorliklari, chiroyli qurish-yasashga qiziqish uyg'otish, ularning nomlarini to'liq aytishga o'rgatish.</p> <p>Markazlardagi ta'limiy faoliyat:</p> <p>(Ihtiyoriy mavzular tanlanadi)</p> <p>Qurish-yasash, konstruksiyalashva matematika markazi: "lego" turidagi o'yin bo'laklaridan modellar yig'ishni; 3-4ta (kichik guruhda); 6-8ta (o'rta guruhda) qismlardan pazllar yasash;</p> <p>Qog'ozdan buklash orqali sodda shakllarni yasash;</p> <p>Asosiy qurish-yasash materiallari (kubik, g'ishtchalar, plastina, silindr, uch qirrali prizma kabilar)ni bilish va nomini aytish;</p> <p>G'isht va plastinalarni vertikal tartibda tahlay olishni, qo'shimcha detal qo'shish yoki birini boshqasi bilan almashtirish orqali qurish-yasash ishlarini o'zgartirish;</p> <p>Qurish-yasash qismlarining hajmini: katta-kichik, baland-past, uzun-qisqa, keng-tor, kabi tushunchalarni berilishi;</p> <p>(Kubik va g'ishtchalardan "Bog'cha quramiz";</p> | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|--|--|---|--|--|--|
| | | <p>“Bayroqcha”ni bo`yash”, “Bizning ko`cha”; “Do`kon quramiz”, “Toshkent shahri bilan tanishuv”); Bolalarga tayyor shakllardan konstruksiyalar (“Toshkent ko`priklari”, “Men yashaydigan uy”) yasashni; Bolalarga alohida predmetlardan guruh hosil qilishni (barcha qizil, barcha sariq, barcha yumaloq va boshqa predmetlarni guruhlash); Guruhdan bir predmetni ajratishni; Bolalarni doira, kvadrat va uchburchak haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash uchun (doirani o`hg qo`linga ol , kvadratni chap qo`linga ol), qo`lingda turgan narsani nomini aytishni; “Top-chi, haltada nima bor”, “Juftihgni top”, “O`z uyingni top” kabi o`yinlardan foydalanishni o`rgatish usullarini ko`rsatish;</p> <p>Syujetli-rolli o`yinlar va drammalashtirish markazi: Bolalarni tarbiyachi bilan bo`ladigan hamkorlikdagi o`yinlariga qatnashishlari; O`zi mustaqil tanlagan rolni ijro etishni, shartli o`yin harakatlarini bajarishlari; Tarbiyachi yordamida tanish ertaklarni va zamonaviy adabiyot syujetlarini drammalashtirish; Bolalar o`yinlarda madaniy axloq qoidalari, xayrihohlik, o`zaro yordam vhlarni qo`llash; (“Kelinglar tanishamiz”, “Bolalar bog`chasi”, mazmunli rolli o`yinlar “O`zbekiston shaharlari”)</p> <p>Til va nutq: “Mening guruhimdagi jihozlarim”, O`zbekiston shaxarlari haqida suhbat; Avtobusda ekskursiya, har xil yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar oldida to`xtash; Suhbat - “O`zbekiston Vatanim mening”, “O`zbekiston poytaxti”, “O`zbekiston prezidenti”, “O`zbekiston haqida she`rlar yodlash”); Mavzu bo`yicha she`r, ertak, topishmoq, hikoya, sanamalarni ifodali aytish; Asar mazmuni asosida berilgan savollarga imkon qadar aniq va dadil javob berish;</p> <p>Ilm fan va tabiat markazi: Bolalarga ob-havo holatini (sovuq, issiq, iliq, quyoshli, bulutli, shamol esyapti, yomg`ir yog`yapti), suv va qorning ayrim xususiyatlarini (suv tiniq, qor yumshoq bo`lishi, undan qorbobo yasash , qorbo`ron o`ynash, qor quruq ham bo`lishi mumkinlig vhk...) farqlashni; Ayrim predmetlar suvda cho`kishi, ayrimlari cho`kmasligi-suvning xususiyatlarini; (tajriba) Jonsiz tabiatning ayrim xususiyatlari (tosh qattiq, qum sochiluvchan)ni tajriba orqali farqlash usullarini ko`rsatish;</p> | | | |
|--|--|---|--|--|--|

| | | | | | |
|----|---|--|----|---|---|
| | | <p>“Hona gullari bilan tanishtirishni”, “Kuz barglari”;</p> <p>San`at markazi:</p> <p>Rasm “Bayroqchani bo`yash”, “Gullar”, loy ishi “Do`stlarim uchun teshik kulcha”. Yelimlash: “Bayroqcha.”</p> <p>Rasm chizish “O`z shahrimni qanday ko`rishni istayman”, applikasiya “So`zana”, “Shaxar bo`ylab ekskursiya”;</p> <p>Rasm solish uchun zarur materiallarni bilish va nomini aytishni, qalam, flamaster, mo`yqalam va bo`yoqdan to`g`ri foydalanish;</p> <p>Tayyor figuralardan tasviriy materiallar yaratish, tabiiy vageometrikshakllardan bezakli kompozitsiyalar yaratishni va applikasiyani bezash;</p> | | | |
| 16 | <p>Katta va tayyorlov guruhlarida “O`zbekiston mening Vatanim” mavzusida ta`limiy jarayonni tashkil etish.</p> | <p>“O`zbekiston mening Vatanim” mavzusida guruhviy mashg`ulot tashkil etish. Rivojlanish markazlarida o`yinli ta`limiy faoliyatni tashkil etish. O`zbekistonning milliy madaniy me`rosini, uning tarixini bilishga qiziqtirish. O`zbekiston respublikasiga kiruvchi shaxarlar (Buyuk ipak yo`li), har bir shaharlarning o`ziga xos xususiyati, madaniyati, me`morchilik san`ati, iqtisodi, xaritada joylashuvi kabi bilimlarni bolalar ongiga yetkazish.</p> <p>Mavzularni tanlashda, mantiqiy fikrlashga oid lavhalar, ilg`or g`oyalar, vatanparvarlik, insonparvarlik ruhini ko`tarish haqida materiallar, ularni yoritishda hamda amaliy mashg`ulotlarni tanlashda milliy an`ana va qadriyatlarimizdan, o`yinlar, maqol, matal, hikoyalardan foydalanish.</p> <p>Markazlardagi ta`limiy faoliyat: (Ixtiyoriy mavzular tanlanadi) Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi: “Mening shahrim”, “Teleminora quramiz”, “Mening kelajakdagi uyim”, “Zamonaviy shahar”, “Mahalla ko`chalari”, “Oilamiz uchun uy”-birgina obyektini undan foydalanishning turli shart-sharoitlarini nazarda tutib konstruksiyalash;</p> <p>Qaysi detal qurish-yasash uchun ko`proq mos kelishini aniqlash;</p> <p>Qaysi usul bilan konstruksiyalash ko`proq maqsadga muvofiq ekanligini belgilash;</p> <p>Istiqbolda qurish-yasashni rejalashtirish ko`nikmalarini rejalashtirish;</p> <p>Pul qiymatlari va narx-navo, plastik kartochka, terminal haqida ilk tushuncha berish.</p> <p>Shartli o`lchov yordamida predmetlarning kengligini, uzunligini o`lchashniva taqqoslash;</p> <p>Suyuq jismlarni shartli o`lchov birligi bilan o`lchashni va o`lchash natajasini son bilan aytish;</p> | 12 | A | 6 |

| | | | | |
|--|--|--|--|--|
| | <p>Turli narsalar (geometrik shakllar, mevalarni va boshqalar)ni o`nta teng qismlarga bo`lishni o`rgatish;</p> <p>Bolalarni 2 ta, 4 ta uchburchaklardan bitta ko`pburchaklar tuzishga (beshburchak va oltiburchak), kichik to`rtburchakdan bitta katta to`rtburchak tuzishga o`rgatish usullari; Tevarak-atrofdan mo`ljallanib o`rganishni mashq qildirish, aytilgan yo`nalishni tez va to`g`ri belgilash;</p> <p>Syujetli-rolli o`yinlar va drammashtirish markazi: “Yosh sayohatchilar”, “Maktab”, “Buvijonimnikida mehmonda”, “Sartaroshxona”, “Zumrad va Qimmat” ertagini sahnalashtirish, “Ikki do`st” hikoyasini sahnalashtirish;</p> <p>Bolalarni o`yin mazmuniga mos tarzda turli rollarga kirishishni, anjomlar, qurilmalar, qurish-yasash materiallaridan foydalanish;</p> <p>O`yinlarda atrof-borliq haqidagi tasavvurlarni, adabiy asarlar va multfilmlardan olgan taassurotlardan ijodiy foydalanish;</p> <p>Barcha o`yin ishtirokchilarida o`z harakatlarini rejalashtirishni va muhokama qilish ko`nikmalarini rejalashtirish;</p> <p>Til va nutq: Suhbatlar uyushtirish-“Vatanimizning tarixiy shaharlari (Samarqand, Buxoro, Xiva-buyuk ipak yo`li) bilan tanishuv; “Samarqand, Buxoro o`yinchoqlari”, “Mening oilam, mening qo`rg`onim”, didaktik o`yin-“Kulolchilik do`konida” - bolalarga o`yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuzish;</p> <p>O`rgatayotganda o`yinchoqlarni tariflab berish;</p> <p>O`yinchoqlarning o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatuvchi belgilarini (rangi, shakli, qanday o`ynalishi v.h.k...) aniq so`zlar orqali ifodalash;</p> <p>Ilm fan va tabiat markazi: “O`lkaning yer maydoni (tog`lar, adirlar, daryolar)”, “Sabzavot va mevalardan bo`yoq olish”, “Loy va qumning xususiyatlari”, “Toshning xususiyatlari”, “Kimning uyi mustahkam”, “Ajoyib magnitlar”</p> <p>Magnit uchlarining o`ziga tortishishi va o`zidan itarishi haqidagi bilimlarini rivojlantirish;</p> <p>Qum, loyning belgilarini farqlash va nomini aytishni (qum to`kiladi, xo`l qumdan narsalar yasash mumkin, qurigan loy-qattiq, ezsa uqalanadi, u xo`l bo`lsa yana loyga aylanadi, undan narsalar yasash mumkin v.h.k...) ligini tajriba qilish;</p> <p>San`at markazi: “O`zbekistonda milliy bayramlar”, “Tabiiy bo`yoqlardan kuzgi manzara”, Applikasiya “Obod maxalla”, “Navro`z saylida” rasm va applikasiya “Men va mening oilam”, “Do`stimga</p> | | | |
|--|--|--|--|--|

| | | | | | |
|----|--|---|---|---|---|
| | | <p>sovg`a"ixtiyoriy ijodiy ish; "Xamro buvi o`yinchoqlari" rasmini noan`anaviy usulda chizish;</p> <p>Loy ishi-Xamro buvi o`yinchoqlarini "Toychoq", "Xo`roz";</p> <p>Applikatsiyada yelimdan foydalanishlarni va tayyor formalarni yelimlash yo`li bilan tasvirlar yarata olish;</p> <p>Jamoaviy kompozitsiyalarni yaratishda qatnashish va ijod qilish ko`nikmasini shakllantirish;</p> | | | |
| 17 | <p>Kichik va o`rta guruh yoshidagi bolalar bilan "Koinot sirlari" mavzusida ta`limiy jarayonni tashkil etish.</p> | <p>"Koinot sirlari" mavzusida guruhiy mashg`ulot tashkil etish. Rivojlanish markazlarida o`yinli ta`limiy faoliyatni tashkil etish. O`quvchilarga bolalarga kichik yoshdan tevarak-atrofdagi voqea-hodisalariga to`g`ri munosabatni shakllantirishda koinot sirlari haqida eng sodda tushunchalar berishni. Quyosh, Oy, sayyoralar va yer sayyorasi to`g`risidagi ilk bilim va tushunchalarni mashg`ulotlar aro bog`liqlik va boshqa faoliyatlarda berish metodlari.</p> <p>Markazlarda ishlash bo`yicha o`yin va mashg`ulotlar tuzishni mashq qilish.</p> <p>Markazlardagi ta`limiy faoliyat: (Ihtiyoriy mavzular tanlanadi) Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi: Bolalarga sodda voqeaband o`yin masalalarni loyihalab oddiy qurilmalarni "lego" turidagi o`yin bo`laklaridan modellar yig`ish; 3-4ta (kichik guruhda); 6-8ta(o`rta guruhda) qismlardan pazllar yasash; Qog`ozdan buklash orqali sodda shakllarni yasash; (Qurish-yasash: "Shamol bilan o`ynash uchun parrak yasash", "Paketa" vxk..)</p> <p>Qurish-yasash qismlarini hajmiga ko`ra (katta-kichik, uzun-qisqa, baland-past, tor-keng) ligini farqlay olishni va o`z nutqlarida bu so`zlarni qo`llashni;</p> <p>Bolalarga globus, Yer sayyorasi, kosmik kemalar, fazogirlar, osmon jismlari haqida tushuncha berish jarayonida sayyoralarning katta-kichikligini, uzoq-yaqinligini, shakli, fazodagi o`rni, ya`ni matematik tasavvurlarni shakllantirish;</p> <p>Quyosh va oy haqida tasavvur hosil qilish;</p> <p>Geometrik shakllardan "Raketa", "Quyosh" tasvirlarini yasash; "Rasmlar juftini top"; "Sayyoramiz qanday shaklda?", "Kosmik loto"vhk... didaktik o`yinlarini uyushtirish;</p> <p>Syujetli-rolli o`yinlar va drammashtirish markazi: "Oyga raketada uchamiz"-bolalarni tengdoshlarning o`yin harakatiga qiziqishini uyg`otish, bir-biriga halaqit qilmasdan o`ynashga o`rgatish;</p> <p>Harakatlarni bitta obyektidan ikkinchisiga ko`chira</p> | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|----|---|---|----|---|---|
| | | <p>olish, mustaqil o`ynayotgan paytda harakatlarni so`zlar bilan izohlash;</p> <p>Qo`g`irchoq teatri qahramonlari harakatlarini kuzatish;</p> <p>Til va nutq: Suhbat “Raketa kimga kerak?”; “Fazo va fazogirlar”, “Fazoga yo`l”, “Yulduzli osmon rasmi asosida suhbat; U.Nosirov. “Oftob chiqdi olamga” she`rini yod olish; -javob berayotganda, hikoya qilayotganda, so`zlarni grammatik jihatdan to`g`ri o`zlashtirish, jummalarni to`g`ri tuzish;</p> <p>Sur`atlar bo`yicha so`zlab, hikoya qilishda, bolalarga suratda tasvirlangan voqealarga munosabat bildirib, mustaqil hikoya tuzish;</p> <p>“Fazo bu nima?”, “Sayyoramiz qanday nomlanadi?”, “Quyosh sayyorami yoki yulduz?”, “Kimlar fazoga uchadi?”, “Oyga sayoxat”, “Uchadi-uchmaydi”; “Kim nima qiladi?” didaktik o`yinlarni uyushtirish;</p> <p>Qo`shimcha ravishda fazo, raketa so`zlarini o`z nutqlarida qo`llashlari;</p> <p>Ilm fan va tabiat markazi: Suv, qor, muz, qum, loyning belgilarini farqlash va nomini aytishni (qor oppoq, sovuq suv, suv oqadi, iliq va sovuq bo`lishi mumkin; muz qattiq, sirpanchiq; qum to`kiladi, xo`l qumdan narsalar yasash mumkin), o`simliklarni o`sishi uchun suv zarur; -bolalarning diqqatini jonli va jonsiz tabiatda sodir bo`layotgan tanish va notanish predmet va tabiat hodisalariga jalb qilish;</p> <p>San`at markazi: Rangli qalamlar bilan “Raketa parvozi”-rasm; “Katta-kichik sayyoralar rasmini chizishlari”; “Osmondagi yulduzlar”; “Fazo sirlari”; plastelindan “Raketa” yasash; applikasiya “Fazodagi raketalar” tasvirlarini (jamoaviy ish) bajarish;</p> <p>Predmetning o`ziga qarab va tasavvurlariga asoslanib, narsalar yaratishni, bunda tabiat hodisalari, tasviriy vosita va texnologiyalarni qo`llash;</p> | | | |
| 18 | <p>Katta va maktabga tayyorlov guruh yoshdagi bolalar bilan “Koinot sirlari” mavzusida ta`limiy jarayonni tashkil etish.</p> | <p>“Koinot sirlari” mavzusida guruhviy mashg`ulot tashkil etish. Rivojlanish markazlarida o`yinli ta`limiy faoliyatni tashkil etish. Kosmik fazo va birinchi fazogir Y.A. Gagarin; Quyosh va uning xususiyatlari bilan tanishtirishni davom etish; Tun va kun haqida bilim berish (nima uchun Yer yuzida tun va kun bo`ladi?), koinotdagi sayyoralar va ularning Quyosh tizimidagi joylashuvi haqidabilm berish usullarini ko`rsatish. Tevarak-olam haqidagi bilim va tasavvurlarni chuqurlashtirish asosida bolalarning so`z boyligini oshirish va faollashtirish.</p> <p>Markazlardagi ta`limiy faoliyat: (Ihtiyoriy mavzular tanlanadi) Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika</p> | 12 | A | 6 |

| | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|
| | | <p>markazi: Bolalarda 10 gacha bo'lgan predmetlarni to'g'ri va teskari sanash ko'nikmasini mustahkamlash, ko'rsatilgan songa binoan predmetlarni sanab chiqishni mashqqildirish;</p> <p>Matematik misollarni raqamlar yozilgan kartochkalar yordamida ifodalab yechish;</p> <p>Bolalar shartli o'lchov yordamida predmetlar kengligi, uzunligini o'lchashga o'rgatishni davom ettirish va o'lchash natijasini son bilan aytishni va tegishli raqamlar bilan belgilash; Buyumlar(o'yinchoq)ni o'ng qo'l bilan chapdan ongga qo'yish;</p> <p>Bolalarni predmetlarning o'ziga nisbatan joylashishini aniqlash;</p> <p>Maxsus figuralar to'plamidan foydalanib, namunadagi qismlardan tashkil topgan shakl-siluetlar ("Ozga sayyoraliklar", "Lunaxod"vhk...) hosil qilish;</p> <p>Labirintlar va ularning yechimini topish;</p> <p>Bolalarni yangi detallar va ularning xususiyatlari bilan tanishtirishni-turli shakl va hajmdagi yog'och taxta (uzun-qisqa, to'rtburchak,uchburchak) chorqirrayog'och (brus) va silindrlar;</p> <p>Bolalarga yil davomida lego jihozlaridan loyihalar yaratish;</p> <p>20 qismdan kam bo'lmagan pazllarni yig'ish va qog'ozlarni bukib shakllar yasash;</p> <p>Bir necha qurish-yasash guruhini yagona mazmunga birlashtirish;</p> <p>Qurish-yasash materiallari to'plamlaridan turli mavzularda loyihalar yaratishga o'rgatish.</p> <p>"Kosmodrom", "Maydon", "Paketani yig' "-jamoaviy ish bajarishni;</p> <p>"Quyosh va uning tizimidagi sayyoralar"-pazllardan tasvirni yig'ish.</p> <p>"Raketa", "Kosmonavt", "Quyosh va uning tizimidagi sayyoralar"- qirqimlardagi tasvirini to'g'ri yig' va sana;</p> <p>"Labirintdan raketaga to'ri chiqib manzilga yetib olish yo'lini ko'rsat"-labirint; "Rasmni soyasiga ko'ra joylashtir" kabi o'yinlarni uyushtirish;</p> <p>Syujetli-rolli o'yinlar va drammashtirish markazi:</p> <p>Turli-tuman o'yin syujetlarini ("Oyga qilgan sayohatimiz sarguzashtlari", "Viktorina") mustaqil tanlash va o'ylab topish;</p> <p>Rolning yangi talqinini topish va uni amalga oshirish;</p> <p>O'yin jarayonida o'z tengdoshlari bilan birgalikda harakat qilish, xarita va sxemalarni tanlash tartibi haqida kelishib olish;</p> <p>Til va nutq: Bolalarning atrof-olamdagi hodisalar haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish maqsadida ularning nutqini boyitish va</p> | | | |
|--|--|--|--|--|--|

| | | | | | |
|--|--|---|--|--|--|
| | | <p>faolligini oshirish;</p> <p>“Quyosh bilan tanishuv”, “Quyosh tizimi”-hikoya; “Men kosmonavt”- ihtiyoriy hikoya; “Yer, Oy, va raketa”-Qoraqalpog`iston halq ertagi; “Quyosh bilan tanishuv”, “Birinchi kosmonavt Yu. A. Gagarin”, “Boshqa sayyoralarda hayot bormi?” suhbat-kabi mavzular yoritilayotganda, javob berayotganda, hikoya qilayotganda bolalar so`zlarni grammatik jihatdan to`g`ri o`zlashtirish;</p> <p>O`yinchoq, turli buyumlar va voqeyiy (Syujetli) rasmlar bo`yicha, mustaqil ijodiy hikoyalar tuzish;</p> <p>Ilm fan va tabiat markazi: Bolalarning eng oddiy fizik hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitishda havo va uning eng oddiy xususiyatlari (tiniqligi, qayishqoqligi, harakat qilishi-shamol) bilan tanishtirish (Tajriba); Suv xususiyatlari (tajriba), predmetlarni kuzatishni, oddiy tajribalar (cho`kadi-cho`kmaydi, uchadi-ucmaydi) otkazishni, suvning xususiyatlarini aniqlash; Teleskop bilan tanishtirish;</p> <p>Bolalarni tong, kunduz, kechqurun, kechasi tushunchalari bilan tanishtirish;</p> <p>Kun qismlarida insonlar va bolalarning harakatlari haqida tushuncha berish;</p> <p>San`at markazi: Rasm: “Kapsula; sputnik, raketa”; , “Kulgili o`zga sayyoraliklar”, Applikatsiya: “Biz Oyga uchamiz”. Loy ishi “Belka va strelka oyga uchdi”-turli usullardan foydalanib har xil shakldagi narsalarni yasash;</p> <p>Kattalar rahbarligida bolalarning badiiy faoliyatida faol ishtirok etishga nisbatan qiziqish va ishtiyoqlarini oshirish;</p> <p>“Kosmosga parvoz qilamiz”-bolalarga tengqurlari bilan birgalikdagi faoliyatda, ikki qatnashuvchi ishtirok etadigan syujetli-rolli o`yinlarni, rollarni ijro etish;</p> <p>Rollarni navbatma-navbat ijro etib, obrazlarni jonlantirishga intilish;</p> <p>Maktabga tayyorlov guruhi bolalari bilan “Koinot sirlari” mavzusida integratsiyalashgan ta`limiy jarayonni tashkil etish. Rivojlanish markazlarida o`yinli ta`limiy faoliyatni tashkil etish. O`quvchilarga maktabga tayyorlov guruhi bolalariga yulduzlar va yulduzlar turkumlari, koinotga sayr qilgan “Fazogirlar”, ulug` mutafakkir Mirzo Ulug`bekning yulduzshunoslik faniga qo`shgan ulkan hissalarini, milliy-madaniy merosimiz haqida bilim berish usullarini ko`rsatish. Astronomik bilimlarni berishda matematik tushunchalardan son-sanoq, kattalik, shakl, tevarak atrofda mo`ljal olish va vaqt haqidagi tushunchalarini mustahkamlash, lug`atini yangi so`zlar bilan boyirish.</p> | | | |
|--|--|---|--|--|--|

| | | | | | |
|--|--|---|--|--|--|
| | | <p>Markazlardagi ta'limiy faoliyat: (Ihtiyoriy mavzular tanlanadi) Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi: 10 gacha tartib bilan sanash, miqdor va tartib sanoqni farqlash, «Qancha?», «Qaysi?», «Hisob bo'yicha nechanchisi?» degan savollarga to'g'ri javob bera olish; Vazifalarning yechimini «yozishda» sonlarning raqam belgilari va amal belgilari: plyus (+), minus (-), barobar (=) dan foydalanish; Arifmetik masalalar tuzish va yechish. «Koinotdagi chalkashuvlar», «Kosmonavtlarni qidirib», «Uchar likobcha», «Raketalar adashishdi», «Birinchi parvoz», «Marsda yashovchi Marsliklar», «Ozga sayyoraliklar», Koinotdagi jang» labirintlar va ularning yechimini topishni; «lego» jihozlaridan loyihalar yaratish; 8-10 qismdan kam bo'lmagan pazllarni yig'ish; Qog'ozlarni bukib shakllar yasashni (lunaxod, kapsula, raketa), qurish-yasash materiallari to'plamlaridan turli mavzularda loyihalar yaratishni o'rgatish; Bolalarga yulduzlar va yulduzlar turkumlari haqida tushuncha berish; Bolalarga yulduzlar va ularning o'zaro turkumlar hosil qilishlarini, yulduzlar turkumlaridagi yulduzlar sonini sanash, ularni farqlash va taqqoslashga o'rgatish; Birinchi kosmonavt-qahramon uchuvchi Yuriy Alekseevich Gagarin; Hamyurtimiz Vladimir Jonibekov; o'zbek o'g'loni Solijon Sharipovlar bilan tanishtirish; «Yulduzlar turkumlarini birlashtir» rasmlari orqali sanashni va bo'yash; «Yulduzli hayvonot bog'i»ga (matematik mazmundagi) sayr; Syujetli-rolli o'yinlar va drammashtirish markazi: Qanday o'yin o'ynash, bunda («Marsga uchamiz», «Yerga qaytish») kim qanday rolni o'ynashi haqida sheriklari bilan kelishishni, o'yin qoidalariga rioya qilish; Ta'limiy o'yinlar orqali o'z imkoniytlarini baholash; Spektaklni ko'rib bo'lgandan keyin aktyorlar o'yinini qo'llangan badiiy ifoda vositalarini va sahna asarining badiiy bezaklarini baholash; Til va nutq: Hayotiy mavzular bo'yicha mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish; «Muhammad Tarag'ay Ulug'bek bilan tanishuv»-bolalarda asarda ishtirok etayotgan qaxramonlarning ruhiy kechinmalarini tushunib, ravon bayon etish, she'riy asarlarni yod olish, ifodali o'qishni mashq qilish; «Sayyoralar bilan tanishuv», «Oy bilan tanishuv»,</p> | | | |
|--|--|---|--|--|--|

| | | | | | |
|----|--|---|----|---|---|
| | | <p>“Oyga sayohat” , “Gallaktikadagi eng yaxshi Sayyora” kattalarga tabiatdagi notanish yoki o`zi uchun qiziqarli bo`lgan predmet va hodisalar haqida savollarga javob berish;</p> <p>Koinot sirlari, Quyosh, Oy, Yulduzlar haqida she`r, topishmoq va maqollarni o`rganish;</p> <p>Ilm fan va tabiat markazi:TRIZ-IMEN usulida “Boshqa sayyoraga sayohat” hikoya davomida muammolar yechimini topish;</p> <p>Plastmassa bilan yog`och haqidagi elementar tushunchalarini shakllantirish;</p> <p>Plastmassani xususiyatini hisobga olgan holda undan qurish va yasashni o`rgatish;</p> <p>Yog`och va plastmassani suvga solinganligidagi holatini kuzatish;</p> <p>Yer va o`zga sayyoradagi hayot uchun uylar, mebellarni ixtiro qilish;</p> <p>U yerda qanday gullarni tuvakda o`stirish;</p> <p>San`at markazi: Individual va jamoaviy rasmlar chizish, atrof borliq, hayot va badiiy asar voqea-hodisalari asosida predmetli va syujetli rasm chizish;</p> <p>Rasmda turli tasviriy materiallarni va tasviriy texnologiyalarni qo`llash;</p> <p>Narsaning konstruksiyasini ko`ra bilish va amaliy vazifalarni nazarda tutgan holda uni tahlil qila olish;</p> <p>Katta hajmdagi o`yinchoqlarni yasash;</p> <p>“Koinotda raketa”, “Quyosh va uning tizimidagi sayyoralar”, “Skafandr kiygan kosmonavt”rasmini chizishni; Applikatsiya “Raketa koinotda uchib ketmoqda”, loy ishi “Skafandr kiygan kosmonavt” siluyetlarini yasash;</p> | | | |
| 19 | <p>“Yer sayyorasi” mavzusida ta`limiy jarayonni tashkil etish.</p> | <p>Kichik va o`rta guruh yoshidagi bolalar bilan “Yer sayyorasi” mavzusida integratsiyalashgan ta`limiy jarayonni tashkil etish.</p> <p>Rivojlanish markazlarida o`yinli ta`limiy faoliyatni tashkil etish. O`quvchilarga bolalarga “Yer sayyorasi” shu bilan birga o`z shahar, qishloq, mahalla va ko`cha haqida bilim berish usullarini ko`rsatish. Ularning ona Yerimizga, tabiatga, hayotga, borliqqa to`g`ri munosabatda bo`lish hislarini tarbiyalash. Bolalarning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga qiziqishini uyg`otish va lug`atini boyitish.</p> <p>Markazlardagi ta`limiy faoliyat: (Ixtiyoriy mavzular tanlanadi)</p> <p>Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi: “Kub, gishtcha, va piramidalardan uylar quramiz”, “Teremok”, “Uch ayiq uchun uycha”, “Yer rasmini pazllardan yig`ing”;</p> | 12 | A | 6 |

| | | | | | |
|--|--|---|--|--|--|
| | | <p>Bolalarga g'ishtchalarni qator qilib terib, bir-biri bilan birlashtirishni (uycha, tomon, yo'lka, poyezd izi), fazoviy belgilar (qisqa-uzun, tor-keng)ni farqlash va ularni so'z bilan to'g'ri ifodalash;</p> <p>Bolalarga o'z qurilmalari bilan o'ynashni o'rgatish (qurilmalarni: uy va yo'lka-ko'cha; stol, stul, divan-qo'g'irchoqlar uchun mebel v.h.k) syujetga ko'ra birlashtirish;</p> <p>Bolalarga sodda voqeaband o'yin masalalarni loyihalab oddiy qurilmalar yasash:</p> <p>“lego” turidagi o'yin bo'laklaridan modellar yig'ish; 3-4ta (kichik guruhda); 6-8ta (o'rta guruhda) qismlardan pazllar yasash;</p> <p>Qog'ozdan buklash orqali sodda shakllarni yasash;</p> <p>Syujetli-rolli o'yinlar va drammashtirish markazi:</p> <p>“Shahar yo'llarida”, “Hayvonot bog'i”, “Do'stlar bilan sayohat maroqli”, “Tabiatni asraymiz”</p> <p>-Bolalar tengqurlari bilan birgalikdagi faoliyatda, ikki qatnashuvchi ishtirok etadigan syujetli-rolli o'yinlarda (mehmon-mezbon, ona-bola, shifokor- bemor) rollarini ijro etishlari;</p> <p>Rollarni navbatma-navbat ijro etib obrazlarni jonlantirishga intilish;</p> <p>Bolalarning u yoki bu rol uchun atributlar tanlash;</p> <p>O'yin muhitiga yetishmagan buyum, o'yinchoqlar bilan to'ldirish urinishlarini rag'batlantirish;</p> <p>Teatr haqidagi suhbatlarda ishtirok etish; (teatr-aktyorlar-tomoshabinlar va ularning o'zlarini tomosha zalida tutishlari)</p> <p>Til va nutq: “Yer”, “O'z uyingni asra!”-suhbat; Q. O'tayevning “Yer” she'rini o'rganishni-tevarak-atrofdagi bilim va tasavvurlarni chuqurlashtirish asosida bolalarning so'z boyligini oshirish va faollashtirish;</p> <p>O'zining hatti-harakatini boshqarishni, faoliyatini so'z bilan ifodalash;</p> <p>Bir qancha gaplardan hikoya tuza olish;</p> <p>Mavzuga oid nutqni rivojlantiruvchi muhitni yaratish maqsadida ta'limiy o'yinlarni uyushtirish;</p> <p>Ilm fan va tabiat markazi: “Shamol, shamol, shabada”, “Havo stakanda”, “Shamol bu havoning harakati”-tajribalarni o'tkazish;</p> <p>Bolalarga ob-havodagi o'zgarishlarni (Shamol esyapti, sovuq shamol esyapti, shabada) farqlash;</p> <p>Bolalarni shamol bilan tanishtirishda ko'rgama va tarqatma materiallar asosida tajribalarni uyushtirish;</p> <p>To'g'ri nafas olib va nafas chiqarishni bunda predmetlarni og'izdan havo chiqarib, puflab harakatlantirish; (shamol qilishni)</p> <p>San'at markazi: “Daraxtlar”, “Tabiatni asrash bizning</p> | | | |
|--|--|---|--|--|--|

| | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|
| | | <p>qo'limizda"-o'ziga qahramonning ma'lum bir rolini olib, tengdoshlari bilan o'yinda birgalikda harakat qila olish;</p> <p>Bir necha o'yin harakatlarini yagona syujet chizig'iga birlashtirish;</p> <p>O'yinda narsalar bilan harakatlanishni va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirish;</p> <p>Teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarining borishini kuzatish va ularga hissiy tarzda munosabatda bo'lish;</p> <p>"Tabiatni o'rganamiz" nakleykali mozaika bilan ishlash;</p> <p>Katta va tayyorlov guruh yoshidagi bolalar bilan "Yer sayyorasi" mavzusida integratsiyalashgan ta'limiy jarayonni tashkil etish. Rivojlanish markazlarida o'yinli ta'limiy faoliyatni tashkil etish.</p> <p>O'quvchilarga bolalarni Xarita bilan tanishtirish:"Globus", "Dunyoning tabiiy xaritasi", "O'zbekiston Respublikasi xaritasi". Yerning shar shaklida ekanligi va u o'z o'qi atrofida aylanishi, undagi qit'alar haqida tushuncha berish; Bolalarni O'zbekistonning xaritasidagi o'rnini va ko'rinishini bilan tanishtirish usullarini ko'rsatish. Mavzuni o'zlashtira olish qobiliyatini "Xaritani bilasanmi?" o'yini orqali rivojlantirish.</p> <p>Markazlardagi ta'limiy faoliyat: (Ixtiyoriy mavzular tanlanadi) Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi: "Klumba", "Qush uyasi maketi", "Asboblarga uchun yashik", "Bolalar bog'chasi", "Xavfli belgilar", "Hiyobon", "Kelajak shahri";</p> <p>Qaysi detal qurish-yasash uchun ko'proq mos kelishini aniqlash;</p> <p>Qaysi usul bilan konstruksiyalash ko'proq maqsadga muvofiq ekanligini belgilash;</p> <p>Istiqbolda qurish-yasashni rejalashtirish ko'nikmalarini rejalashtirish.</p> <p>8-10 qismdan kam bo'lmagan pazllarni yig'ishni; "Yer sayyorasini pazllarda yig'ish"</p> <p>"Xaritani bilasanmi?" o'yini ("O'zbekiston Respublikasi xaritasi va unga kiruvchi viloyatlar bilan tanishuv")-"O'zbekiston respublikasi xaritasini pazllardan yig'ish"ni mashq qilish;</p> <p>Yetishmagan shakl, jismni topishga doir mantiqiy masalalarni tuzish va echish;</p> <p>Razlardan uylar, qasirlar, dala hovlilar, garajlar maketi konstruksiyasini qurish;</p> <p>Hafta kunlari va yil fasllari izchilligi haqidagi bilimlarni mustahkamlash;</p> | | | |
|--|--|--|--|--|--|

| | | | | | |
|----|--|---|----|---|---|
| | | <p>Kelgusi oyning nomini aytishni mashq qildirish; Qirqimlarni to`g`ri terish va sanash natijasida “Yer”, “Yil fasllari”ga oid kompozitsiyalarni yig`ish; Syujetli-rolli o`yinlar va drammashtirish markazi: “Oila”, “Mening multfilmdagi sevimli qahramonim”, “Uy quramiz”, “Hayvonot bog`i”-Hamkorlik va o`zaro yordamga asoslangan munosabatlarni shakllantirish; Sahnalashtirish uchun ertak, qo`shiqni mustaqil tanlash, bo`lg`usi spektakl uchun zarur bo`lgan anjomlar va dekoratsiyani tayyorlashni; O`zaro majburiyat va rollarni bo`lib olish ko`nikmasini takomillashtirish; Til va nutq: “Yer” she`ri, “Yer sayyorasi” haqida suhbat,“Koreys halq ertagi”, “Fedorino qayg`usi” she`rini o`qib berish, “Moydodir” she`rini yod olish, “Mening mahallam” surati asosida hikoya tuzish qobiliyatini rivojlantirish; Bolalarga mazmunli rasmlarda aks ettirilgan voqealarni izchil bayon qilish; Qahramonlarning hatti-harakatiga nisbatan o`z munosabatlarini bildirish; Hikoyani mantiqli tugallashni, topishmoqlar o`ylab topish; Ilm fan va tabiat markazi: Bolalarni “Xarita” va uning kelib chiqish tarixi bilan tanishtirish; Yer sayyorasida turli millat vakillari yasash;“Olimpiya halqasi”; “Dunyoning xaritasi”ga har bir davlatning qahramonlarini bolalar qo`yib berishlarini mashq qilish; (M-h Xindular, Eyfel minorasi, Kenguru, Pingvin, Kreml vkh...) Bolalarni ona Yerga, tabiatga, hayotga, borliqqa to`g`ri munosabatni shakllantirish; Globusdan foydalanib bolalarga kun va tunning almashinishini va dunyo xaritasidan qit`alar, quruqliklar, tog`lar, suv havzalarini belgilanish; San`at markazi: “Mening Toshkentim” jamoaviy kollaj; Applikatsiya “Navro`z bayrami”; “Yerni asraylik” rasm, applikatsiya jamoaviy ish; Yerning har fasldagi ko`rinishini rasm va applikatsiya asosida noan`anaviy usulda bajarish; Predmetning o`ziga qarab va tasavvurlariga asoslanib, narsalar yaratishni, bunda tabiat hodisalari, tasviriy vosita va texnologiyalarni qo`llash;</p> | | | |
| 20 | <p>Transport ko`cha harakati qoidalari. (KHQ) oy mavzusida ta`limiy jarayonni tashkil etish.</p> | <p>Kichik va o`rta guruhlarda “Transport bilan tanishuv”, “Yer usti transporti” mavzusida integratsiyalashgan ta`limiy jarayonni tashkil etish. Rivojlanish markazlarida o`yinli ta`limiy faoliyatni tashkil etish.Turli transport vositalari va kasblar haqida tushuncha berish. O`quvchilarga bolalarni turli xil</p> | 12 | A | 6 |

| | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|
| | | <p>transport vositalari (mashina, poyezd, samalyot, avtobus, yengil avtomobil v.h.k...) bilan tanishtirish, turli faoliyatlar asosida transport vositalari haqidagi bilimlarini kengaytirish va ularning nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish usullarini ko'rsatish. Yengil va yuk mashinalarni tanish va aytishni mashq qilish.</p> <p>Markazlardagi ta'limiy faoliyat: (Ixtiyoriy mavzular tanlanadi) Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi: Asosiy qurish-yasash materiallarini (kubik, g'ishtcha, plastina, silindr, uch qirrali prizma kabilarni) farqlashni, nomini aytish va qo'llay bilishga o'rgatishni;(Chorraha, "Mashina uchun garaj") Detallarni gorizontal tarzda joylashtirishni o'rgatishni ("Mashina uchun yo'l", "Poyezd yasash"); Bolalarda qurish-yasash detallarini gorizontal (keng, uzun tarafi bilan-mashina yo'lini qurish) va vertikal (aylanasiga qatorlashtirib qo'yish-devor) tartibida taxlay olish ko'nikmasini shakllantirish; Bir-birining ustiga mahkam qilib taxlash hamda ma'lum bir oraliqda qo'ya olish (darvoza) tarbiuyachining ko'rsatmasiga muvofiq soddaroq qurish-yasash ishlarini amalga oshirish; "lego" turidagi o'yin bo'laklaridan modellar yig'ish; (mashina turlari, garaj) 3-4ta (kichik guruhda); 6-8ta(o'rta guruhda) qismlardan mashinalarning turli ko'rinishlarini pazllar yig'ish; Suratlarni taqqoslay bilish; o'ziga 2-3 belgisiga asosan ularni guruhlay olishga o'rgatish usullari. Sutka qismlarini bilish va o'z nutqida to'g'ri qo'llay olish; "Ko'p", "Oz", "Barobar" tushunchalarini taqqoslash orqali aniqlay bilish; O'lchovda mo'ljal ola bilish, qism-butun tushunchalarini farqlay olish; Syujetli-rolli o'yinlar va drammalashtirish markazi:Bolalarga tengqurlari bilan birgalikdagi faoliyatda, ikki qatnashuvchi ishtirok etadigan syujetli-rolli o'yinlarda(haydovchi-yo'lovchi) rollarini ijro etish; "Haydovchi va piyodalar", "Avtobus"o'yinlarida rollarni navbatma-navbat ijro etib obrazlarni jonlantirishga intilish; Bolalarning u yoki bu rol uchun atributlar tanlashi; O'yin muhitiga yetishmagan buyum, o'yinchoqlar bilan to'ldirishga urinishlarini rag'batlantirish; Til va nutq:"Transport turlari", "Yer usti transporti" bilan tanishuv; rivojlantiruvchi o'yin-"Ovozli</p> | | | |
|--|--|--|--|--|--|

| | | | | | |
|--|--|---|--|--|--|
| | | <p>narvoncha”, “Har xil transport turlarida sayohat qilamiz”, Haydovchi mehnati haqida suhbat-soʻzlashuv nutqini oʻstirish;</p> <p>Bolalarda tarbiyachining nutqini tinglash va tushunish;</p> <p>Berilgan savollarga toʻliq javob berish, oʻyinchoqlarni tasvirlash;</p> <p>“Yangi mashina” A.Nosirov-hikoyalarni qiziqib tinglashga ishtiyoq uygʻotish;</p> <p>Bolalarni qisqa ertak va hikoyalarni soʻzlab berishni, javob berishni, kichik sheʼr va erkalamalarni yod olish;</p> <p>Bolalarni kitobga nisbatan qiziqishni, mehr hislarini kuchaytirish;</p> <p>Ilm fan va tabiat markazi: “Yer, suv, havo transporti” turlarini ajratish;</p> <p>“Kuz bogʻiga mashinada sayr”ni uyushtirish;</p> <p>Surʼatlarni taqqoslay bilish; oʻziga 2-3 belgisiga asosan ularni guruhlay olish;</p> <p>“Xona oʻsimliklari bizning doʻstimiz” haqida tushuncha;</p> <p>“Oʻsimliklarga suv quyib turilsa va turpogʻi yumshatilsa oʻsimliklar yengil nafas oladi”-tajribasini uyushtirish; (Tuvakdagi tuproqni kuzatishni, uni choʻp bilan yumshatish, tuvakdagi gullarga oʻz vaqtida suv quyib turish)</p> <p>Bolalardan qachon oʻsimliklar yengil nafas olishi haqidagi tushunchalarini aniqlash;</p> <p>Sanʼat markazi: “Poyezd vagonlari”, “Yuk mashinasi”-rasmini chizish; “Samalyot uchmoqda” “Vagonlarni yelimlash”, “Avtobus”, “Traktor”, “Qayiqchalar suvda suzmoqda”- applikasiya; “Mashina”, “Gʻildirak”, “Samalyot”-loy ishi;</p> <p>Qalam, flamaster, moʻyqalam kabilardan toʻgʻri foydalanish;</p> <p>Loyni yassi shaklga keltirib, yengil harakat bilan uning zarur chetlarini chimdib, mayda detallarni yasash;</p> <p>Bolalarni qaychini toʻgʻri ushlab va qirqish, geometrik shakllardan kvadrat, doira, toʻgʻri toʻrtburchak, uchburchak shakllarini kesish;</p> <p>Turli rangli detallardan foydalanib, mayda va yirik qurish-yasash ishlarini amalga oshirish;</p> <p>Tabiiy materiallardan turli narsa-buyumlar tayyorlash, ularning qismlarini mustahkamlash uchun plastelin va yelimdan foydalanish;</p> <p>Katta va tayyorlov guruhlarida “Havo, suv va Yer usti transporti” mavzusida taʼlimiy jarayonni tashkil etish.</p> <p>Rivojlanish markazlarida oʻyinli taʼlimiy faoliyatni tashkil etish. Transport vositalari (havo, suv va yer)</p> | | | |
|--|--|---|--|--|--|

| | | | | | |
|--|--|---|--|--|--|
| | | <p>xizmatchilari mehnati haqida;Maxsus transportning ko`p xilligi, ma`lum ish turlarini bajarish mexanizmlari va uskunalar (o`t o`chirish mashinasi, qor tozalovchi, suv sepuvchi mashinalar) haqida tushuncha berish. Harakat qilish muhiti bo`yicha transport turlariga (yerda, suvda, havoda), bajaradigan ishiga qarab (tez yordam, militsiya, yo`lovchilarni tashivchi, yuk tashuvchi, qurish-yasashdagi maxsus mashinalar vkh...) guruhlarga ajratish, ularni taqqoslashga o`rgatish; transport vositalari tuzilishining ularning harakat qilish muhitga, bajaradigan ishiga va yukining xarakteriga bog`liq ekanini tushunishga o`rgatish.</p> <p>Markazlardagi ta`limiy faoliyat: (Ixtiyoriy mavzular tanlanadi) Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi:</p> <p>Buyumlarning shaklini atash, figuralarni guruhga ajratish, figuralarning bir-biriga o`xshashligi, farqini bilish, taqqoslash, o`lchash, sanash, (katak daftar varag`ida chizish, qirqish, yangi bir figuradan boshqa figurani hosil qilish);</p> <p>Uchburchak, to`rtburchak, to`g`rito`rtburchaklar haqidagi tushunchalarni rivojlantirish;</p> <p>Shakllarning xossa va elementlarini ajratish, ularning sonini aniqlash va hokazolar ustiga, yoniga qo`yish, rasmini chizish, shartli o`lchovlar bilan sanash;</p> <p>Ayrim elementlarni (tomonlarini) o`lchash usullaridan foydalanish;</p> <p>Bolalarning figuralar o`rtasidagi o`xshashlik va farq qiluvchi belgilarni farqlashga o`rgatish.</p> <p>Geometrik figuralar va jismlar nabori bilan bajariladigan o`yin musobaqalarni tashkil etishni;(havo, suv va yer)transportturlarini yasash-ihtiyoriy, ijodiy ishlarni bajarish;</p> <p>Qurish-yasash: tashlandiq materiallaridan (havo, suv va yer) transportturlarini yasash-ihtiyoriy, ijodiy ishlarni bajarish;</p> <p>Labirintlar: "Mashina qaysi yo`ldan yursa marraga tezroq yetib keladi"...;</p> <p>O`yinlar "Bu qismlar qaysi mashinaniki?", Qirqimlardan "Tez yordam", "O`t o`chirish mashinasi", "Militsiya", "Samalyot", "Kema" , "Vertolyot" vkh...mashina turlarini, terish va sanash;</p> <p>Konstruktor legodan "Garaj" quramiz, "Mashina", "Samalyot", "Kema"vkh...; Konstruktor "Vertolyot" yig`amiz Konstruktor "kema" yig`amiz "Transport" mavzusida pazl Konstruktor "Mashina yig`amiz", "Kema yig`amiz", "Maxsus transport" turlaridan ixtiyoriysini pazl va sonli kesma</p> | | | |
|--|--|---|--|--|--|

| | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|
| | | <p>rasmlardan yig`amiz; Geometrik figuralar va jismlar naboridan “Qismlardan mashinalarni yig`m” Syujetli-rolli o`yinlar va drammashtirish markazi: “Rasmdagi transportlar vositalari nimalarga xizmat qiladi?”, “Yuradi, uchadi, suzadi”, “Samalyotda uchamiz”- o`yinlarida bolalar o`rtasidagi xayrixolik munosabatlarini mustahkamlash; Tevarak-atrofga qiziqishni tarbiyalash maqsadida syujetli-rolli o`yinlarni tashkil etish; O`yinda ko`rgazma-obrazli tafakkurni shakllantirish; “Avtobus-yo`lovchi, haydovchi, chiptachi”, “Kemada uzoq sayohatga safarga boramiz” -drammashtirilgan o`yinlar, bunda rollarni ijro etuvchilarning nutqiy va pantomima harakatlarini yetarli darajada ifodalash; “Kelajak avtomobili”, “Kelajak samalyoti”, “Kelajakdagi kema” yana bolalarga ixtiyoriy transportni (Tez yordam, militsiya vkh..) fantaziyasi asosida ixtiro TRIZ-IMEN usulida bajarish; O`yin uchun kerakli atributlarni, kiyimlarni, dekoratsiyalarni tanlab olish; O`yin davomida unda qatnashayotganlarning individual fikrlari bilan kelishtirib , syujetni rivojlantirish ko`nikmasi; Til va nutq: Transport turlari haqida tushunchalarni aniqlash; Ushbu sohaga oid ayrim kasblar nomi haqidagi tushunchalarni aniqlash; Bolalarni yangi so`zlar bilan tanishtirishni, lug`atni boyitish; Nutqiy, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; Yengil transport turlarini kuzatib, kuzatilgan narsalarni to`g`ri gapirishga o`rgatish; Ba`zi bir grammatik qoidalar bilan tanishtirish; “Havo transporti haqida”, “Bu transport vositasini kim boshqaradi” -suhbatni uyushtirish; Surat bo`yicha hikoya tuzish; - “Metroda”; Jumlalar tuzganda so`zlarni to`g`ri va bir-biriga kelishtirgan holda gapirish; Ilm fan va tabiat markazi: “Pufakcha”(tajriba) -bolalarni havoning harakati, xususiyatlari bilan tanishtirish; Bolalarda havoning xususiyatlarini bilishga qiziqishlarini uyg`otish; Havoga to`ldirilgan pufakchani suvga solinib uni siqib havosi chiqarilganda undan chiqayotgan pufaklarni kuzatish; Bolalar havo pufaklari yengil bo`lgani uchun suvning yuzasiga ko`tarilayotganligini xulosa qilishlari;</p> | | | |
|--|--|--|--|--|--|

| | | | | | |
|----|---|--|----|---|---|
| | | <p>Kuz faslining o`ziga hos xususiyatlarini: kunlar soviy boshlashi, kunduzini qisqarishi;</p> <p>Yaproqlar to`kilishi, o`tlar so`lishi, o`simliklar o`sishdan to`xtashi;</p> <p>Ular uchun zarur bo`lgan yorug`lik va issiqlikning miqdori kamayishi;</p> <p>Ko`chalardagi transport vositalaridan chiqayotga yoqilg`i tutunidan havoning ifloslanishini; Muammoli vaziyatlar: “Nima uchun poyezdlar yurganda relsdan chiqib ketmaydi?”, “Nima uchun samalyotlarda g`ildiraklar bo`ladi?”; “Nima uchun shunday og`ir samalyotlar uchadi?”, “Nima uchun samalyot va raketa illyuminatorlari doira shaklida bo`ladi”, “Nima uchun faqat raketalar koinotga uchadi?”</p> <p>San`at markazi: Rasm: “Mashinada hosilni yig`amiz”, “Avtobus”, “Qayiqlar daryoda”, “Ihtiyoriy transport vositasini chizishni”; “Shahar ko`chalaridagi mashinalar” (jamoaviy ish)</p> <p>Applikatsiya: “Yelkanli kemalar dengizda suzmoqda” , Loy ishi; “Ihtiyoriy transport vositasini yasash”, “Mening sevimli o`yinchoq`im”, “Samalyot”</p> <p>Jamoaviy ish: rasm, applikatsiya- “Samalyotlar aerodromga qo`nishmoqda”; Rasmda predmetning shakli va rangini, kompozitsiyasini ko`rish; Dekorativ naqshda ritmni, ranglar uyg`unligini ifoda etish; Loydan, plastelindan buyumlar yasashda shakl harakatining nafisligi;</p> <p>Rasmlarni yelimlab yopishtirishga siluetning ifodaliligini aks ettirish; O`zi o`ylagan narsalarni ifodalashning turli vositalaridan foydalanish; Mustaqil ravishda amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish;</p> | | | |
| | VII-bo`lim. | MTTda ta`limiy jarayondan tashqari vaqtlardagi ishlar | | | |
| 21 | MTTda “Odobnoma” mavzulari bo`yicha ta`lim-tarbiyaviy ishlarni loyihalash. | <p>MTTda bolalar bilan “Odobnoma” yuzasidan tarbiyaga oid tushunchalar bolalarning yoshi, ularning yashash muhiti, shaxsiy xususiyatlari va ruhiy holatlarini e`tiborga olgan holda mashg`ulotlarni loyihalash. MTT dasturi asosida turli yosh guruhlarda odobnomaga oid hafta va kundalik mavzularni o`rganish. Bolalarga odob-ahloq namunalarni kun davomidagi faoliyatlarida singdirish ishlariga ota-onalarni jalb qilish. Odobnoma mavzularini turli tadbirlar, bayram ertaliklari, ko`ngil ochish soatlarida qollash.</p> <p>Hafta mavzulari: “Men va mening do`stlarim”, “Men va bolalar bog`chasi”, “Bizning yaxshi ishlarimiz”, “Barcha kasblar muhim”, “Xushmuomalalik alifbosi” bo`yicha rivojlanish markazlari uchun ishlanmalar</p> | 12 | A | 5 |

| | | | | | |
|--|-------------|---|------------|-----------|--|
| | | <p>tayyorlash. Hafta mavzulari bo'yicha turli yosh guruhlarda rivojlanish markazlarini tashkil etish. MTTda "Zumradoylar davrasi" to'garagi ta'limining konsepsiyasi. Tarbiyaviy yo'nalishlarning mazmuni. To'garak yo'riqnomasi bo'yicha bolalar egallashi zarur bo'lgan tushuncha, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda pedagog va ota-onalarning hamkorligi. Turli yosh guruhlarda "Zumradoylar davrasi" to'garagi mavzulari va ular mazmunini o'rganish. "Ilk qadam" davlat dasturi hafta mavzulari bilan bog'lash.</p> <p>Bolalarni odob-axloq haqida tushunchalar bilan tanishtirishga oid suhbat ishlanmalarini tuzish, ko'rgazmalar va slaydalar tayyorlash. Matbuot materiallari bilan ishlash.</p> <p>Kichik, o'rta guruhlarda "Zumradoylar davrasi" to'garagi mavzulari bo'yicha mashg'ulotlarni loyihalash, ko'rgazmalar tayyorlash. To'garak mavzulari bo'yicha voqeaband ijroli o'yinlar, suhbat, sahnalashtirilgan lavhalar shaklida mashg'ulot ishlanmasini tuzish va tashkil qilish. Turli-tuman rasmlar, ertak, rivoyat, hikoyat, maqollardan foydalanish.</p> <p>Katta, tayyorlov guruhlarda "Zumradoylar davrasi" to'garagi mavzulari bo'yicha mashg'ulotlarni loyihalash, ko'rgazmalar tayyorlash. To'garak mavzularining murakkablashib borishi. To'garak mavzulari bo'yicha videoroliklar, ko'rgazmalar va slaydalar tayyorlash, voqeaband ijroli o'yinlar, suhbat, mehnat, sahnalashtirilgan lavhalar shaklida mashg'ulot ishlanmasini tuzish va tashkil qilish.</p> | | | |
| | Jami | | 180 | 90 | |

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi. Baholash usullari og'zaki, yozma, test, individual vazifalar, kichik guruhlar tomonidan bajarilgan topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M. Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
2. Sh.M. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
3. Sh.M. Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" Toshkent – "O'zbekiston"-2019

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 may PQ 4312 qarori
5. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti . 2020 yil
6. O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari". 2018 yil
7. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2018 yil
8. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish (kichik, o'rta, katta, tayyorlov guruhlari). Toshkent. O`zRMTV 2018 yil.
9. F.Voxobova, Sh.B.Nabixanova,D.T Karimova "Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo`naltirilgan ta`lim asoslari" pedagogika kolleji o`quvchilari uchun o`quv qo`llanma. Toshkent-2015
10. F.Voxobova, Sh.B.Nabixanova,D.T Karimova "Bola huquqlari, shaxsga yo`naltirilgan ta`lim, maktabgacha ta`limga qo`yiladigan davlat talablari hamda "Bolajon" va "Bilimdon" dasturlari asosida pedagogik kollej o`qituvchilarini o`qitish bo`yicha metodik qo`llanma Toshkent-2015.
11. "Bolalar ensiklopediyasi" Toshkent-2000 "Davlat ilmiy nashriyoti"
12. Sh.Boltayeva."O`ynaymiz, o`ylaymiz, aqlimizni charxlaymiz" UICC «Uzincomcenter» MTM tayyorlov guruhlari uchun tavsiya.Toshkent- 2002
13. .E.A.Bondarrenko. "Готовимся к школе", "Играя развиваем мышление" Москва ЗАО «БАО – ПРЕСС». MTM tayyorlov guruhlari uchun tavsiya-2005
14. N.A.Muratova. "Математика" для обучения детей в д/с и дома. Екатеринбург. У-Фактория». Qo`llanma-2002.
15. «Почему корабли не тонут»-100 интересных факторов о транспорте.изд:000 «Питер Пресс» Санкт Питербург-2016
16. «Рисование для малышей» Т.Л.Чаброва "Bekinmachoq-plyus" O`zRXTB. MMXQTMORO`MM. Toshkent-2012 yil.
17. «Знакомимся сприродой» дошкольная мозаика с наклейками 000 «Издательская группа Аттикус» 2009 Москва
18. "Boshlang`ich ta`lim", "Maktabgacha ta`lim" jurnallari.
19. "Bolalar ensiklopediyasi" Toshkent-2000 "Davlat ilmiy nashriyoti"
20. M.E.Jumayev. "Bolalarda boshlang`ich matematik tushunchalarini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent. «Ilm-Ziyo» Qo`llanma - 2013.
21. Z.A.Raxmonqulova, U. Raxmonqulov, N. Qurbonova "Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini shakllantirish" O`zRXTB. MMXQTMORO`MM Toshkent "Bekinmachoq-plyus" 2012
22. Prof. F.R.Qodirova "Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o`stirish" O`zRXTB. MMXQTMORO`MM Toshkent-2011
23. F.Voxobova, D. Zaynuddinova "Rivojlantiruvchi o`yinlar" Toshkent "Bekinmachoq-plyus" 2009 yil
24. "Учимся понимать друг друга». М-2008

Internet manbaalari

1. www.maam.ru
2. www.maam.ru/detsijsad
3. www.maam.ru/obrazovanie
4. www.maam.ru Экология. Дидактические игры и экологические пособия
5. <https://nsportal.ru> 2017 Картотека подвижных игр по экологии для дошкольников
6. pedsovet.su
7. <https://nsportal.ru>.

8. nops.ru.net.
9. <http://sosed-domosed.ru/wp-content/uploads/2015>
10. <https://meikie.net>
11. "MTT xujjatlari va ko'rgazmalari" telegram kanali @bogchamfaxrim.
12. Did.igry_ekologich.soderzhaniya.docx
13. Nsportal.ru.
14. Vospitatel.kom.ua.
15. Rad-dou5.caduk.ru>
16. <https://docplayer.ru>>
17. <https://ped-kopilka.ru>>
18. T.me/jonajonbogcham, Did.igry_ekologich.soderzhaniya.docx
19. <https://nsportal.ru/detskiy-sad/fizkultura/2017/12/04/kartoteka-podvizhnyh-igr-po-ekologii>
20. <https://nsportal.ru/detskii-sad/vospitatelnaya-rabota/2017/12/01/kartoteka-opytov-i-eksperimentov>
21. www.odetstve.ru
22. <http://nsportal.ru/detskiy-sad/raznoe/2013/02/06/konsultatsiya-razvitie-refleksii-u-detey-doshkolnogo-vozrasta>
23. <http://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/obshchepedagogicheskie-tehnologii/2015/02/16/razvitie-refleksii-kak-komponenta>
24. www.jlmt.uz
25. . <https://mdou62.edu.yar.ru> PDF
26. doshvozzrast.ru> igrarolevaya 19
27. www.TEACHER.uz.
28. 4.www.vospitatel.com.ua.
29. 5.www.dovosp.ru.
30. 6.www.obruch.ru.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIMNING

**40110102.- Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
kasbi bo'yicha**

**Jismoniy sog'lomlashtirish ishlari
o`quv amaliyot**

O'QUV DASTURI

| | |
|--------------------------------------|------------|
| Kvalifikasiya nomi: | Tarbiyachi |
| O'quv rejadagi tartib raqami: | 2.1.14 |
| Ajratilgan soat: | 60 |

Toshkent – 2022

O'quv dasturi pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti pedagogika 110 000 sohasi yo'nalishlari bo'yicha o'quv metodik birlashmasining 2022 yil " 29 " avgustdagi 6- sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI..**

| | | | |
|----------------------|--------------------------------------|---|--|
| Tuzuvchi: | Nabiyeva Dilnoza Midxadovna | – | Toshkent pedagogika kolleji “Maxsus fanlar” kafedrasida yetakchi o'qituvchisi |
| Taqrizchilar: | Djamilova Nargiza Nuriddinovna | – | Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta'lim” kafedrasida pedagogika fanlari nomzodi |
| | Ro'ziyeva Saodat Baxtiyorovna | – | Shayhontohur tumani 171- MTT direktori |

1.O'quv amaliyoti dasturining umumiy talablari

| | |
|--|--|
| Dastur nomi | MTT da jismoniy sog'lomlashtirish ishlari |
| Ajratilgan soat | 60 |
| Mavzular soni | 14 |
| Dasturning maqsadi | Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy sog'lomlashtirish ishlari o'quv amaliyoti o'quvchilarga MTTda ilk yoshdan boshlab to maktab yoshiga yetgunga qadar bolalarni jismoniy rivojlantirish, bola hayotini muhofaza qilish, sog'lig'ini yaxshilash, mustaxkamlash, har tomonlama sog'lom, baquvvat, chiniqqan, o'z harakatini yaxshi boshqara oladigan, jismoniy tarbiya va sport mashqlarini sevadigan, maktabdagi o'qishga kelgusidagi faol ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatli bola shaxsini shakllantirish. |
| O'zlashtirish (o'qitish) natijalari | <ul style="list-style-type: none"> – Saflanish va qayta saflanish mashqlarini bilib oladi; – Asosiy harakat mashqlarini o'rganadi; – Umumrivojlantiruvchi mashqlarni turlarini bajarishni o'rganadi; – Asosiy harakat mashqlarini turlarini amalda mustaqil bajaradi; – Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan badantarbiyani tashkil etishni va o'tkazishni o'rganadi; – Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etadi va o'tkazadi; – Volleybol, basketbol, futbol, badminton va stol tennis o'yinlarini o'tkazish; – Bolalar uchun bayram tadbirlari haqida bilib oladi; – Quyosh, suv, havo vannalarini o'tkazadi; – Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida suv o'yinlarini tashkil qilishni, "Akvamed o'yin va mashqlari" ni o'tkazishni bilib oladi; – Qum o'yinlarini tashkillashtirishni bilib oladi; – Kasbiy ko'nikmalarni egallash va pedagogik amaliyotda qo'llaydi; – O'zlashtirilgan bilimlar bo'yicha tajribalar o'tkaza oladi, mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatadi. |
| Bilimlar | <ul style="list-style-type: none"> – Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning maqsad va vazifalarini; – "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoyiladigan Davlat talablari" ni; – "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturidagi jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi soha kompetensiyalarini; – Saflanish qayta saflanish, asosiy harakat mashqlari-sakrash, emaklash, tirmashib chiqish, uloqtirish va muvozanatni saqlash mashqlarini; – Harakatli o'yinlarni rejalashtirish va o'tkazish, o'zbek milliy va sport elementi bo'lgan o'yinlarni; – Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishni; – Sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil etishni; – Kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlarini; |

| | |
|---|--|
| | <ul style="list-style-type: none"> – Yozgi sog'lomlashtirish davrida foydalaniladigan anjom va jihozlarni; – MTT hodimlarining yozgi sog'lomlashtirish davrini samarali tashkil etishdagi asosiy vazifalarini; – Yoz mavsumida sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishni. |
| Ko'nikmalar | <ul style="list-style-type: none"> – Mashg'ulotlar davomida bolalarni qiziqtirish va faollashtirishni; – Mavzuga mos ko'rgazmali qurollar va vositalarni tayyorlashni; – Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda foydalaniladigan metodlari; – Bolalarni jismoniy rivojlantirishda sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tarbiyachi bilan birgalikda tashkil etish; – Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllanish bo'yicha turli yosh guruhlarida; – Bolalarni rivojlanish haritasini tahlil qilish; – Tarbiyachi bilan hamkorlikda kun tartibini samarali tashkil etish; – Chiniqtirish va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish; – Guruh hududi, ayvonchalarni tozlash, guruh xonalarining holatini saqlash; – Rivojlantiruvchi markazlarda ta'limiy - tarbiyaviy jarayon davomida jismoniy daqiqalar o'tkazish va tarbiyachi hamkorligida faoliyat yuritishni tashkil etish. |
| O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fanning nomi | Pedagogika Maxsus fanlar |
| O'qitishning tashkiliy shakli | A - amaliy ta'lim |
| Dasturga qo'yilgan talab | Majburiy |
| O'qitish tili | Guruhga tayinlangan dars tili asosida (o'zbek yoki rus) |
| Baholash tartibi | Joriy baholash tartibiga asoslanib |
| O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash | Og'zaki, yozma, individual va amaliy topshiriqlar bajarish |

II. O'quv amaliyoti dasturi mazmuni

| t/r | Mavzuning nomi | Mavzuning qisqacha mazmuni | Jami | O'qitishning tashkiliy | Mustaqil ta'lim |
|-----|---|---|------|------------------------|-----------------|
| 1 | MTTda jismoniy mashqlarni asosiy turlarini o'tkazish | Saflanish va qayta saflanish mashqlari, asosiy harakat mashqlari va umumrivojlantiruvchi mashqlarni turlarini bajarish; | 6 | A | |
| 2 | MTTda jismoniy sog'lomlashtiruvchi mashqlar. Kichik va o'rta guruhlarda badantarbiya mashqlarini o'tkazish. | Ertalabki badantarbiya mashqlarini o'tkazish. Badantarbiya mashqlarini tahlil qilish; | 3 | A | 2 |

| | | | | | |
|----|--|---|---|---|---|
| 3 | Katta va tayyorlov guruhlarda badantarbiya mashqlarini o'tkazish. | Turli yosh guruhlarda ertalabki badantarbiya mashqlarini o'tkazish va tahlil qilish. | 3 | A | 2 |
| 4 | Jismoniy daqiqalarni o'tkazish | Jismoniy daqiqalarni o'tkazish va tahlil qilish. Musiqa jo'rligida mashg'ulot uchun harakat tanlash. Mashg'ulotlar jarayonida o'tkaziladigan jismoniy daqiqalarni mustaqil bajarish | 3 | A | 2 |
| 5 | MTTda harakatli o'yinlar.Kichik va o'rta guruhlarda harakatli o'yinlarni o'tkazish. | Kichik va o'rta guruhlarda harakatli o'yinlarni tanlash va o'tkazish. O'yinlar uchun jihozlar tayyorlash. | 6 | A | 2 |
| 6 | Katta va tayyorlov guruhlarda harakatli o'yinlarni o'tkazish. | Katta va tayyorlov guruhlarda harakatli o'yinlarni murakkab turlarini o'tkazish. O'yinlar uchun jihozlar tayyorlash. | 3 | A | 2 |
| 7 | MTTda o'zbek milliy harakatli o'yinlarini tashkil etish | Milliy harakatli o'yinlarini tanlash va o'tkazish. O'yinlar uchun jihozlar tayyorlash. | 3 | A | 2 |
| 8 | MTTda sport elementi o'yinlarini tashkil etish | Sport elementi o'yinlari harakatli o'yinlarni tanlash va o'tkazish. O'yinlar uchun jihozlar tayyorlash. | 3 | A | 2 |
| 9 | MTTda jismoniy tarbiya bayramlarini tashkil etish | Jismoniy tarbiya bayramlarini tashkil qilish "Sog'lomjon– polvonjon"; "Otam, onam va men" bayramlarini o'tkazish. | 6 | A | 2 |
| 10 | Kichik va o'rta guruhlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotini o'tkazish. | Kichik va o'rta guruhlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotini o'tkazish va tahlil qilish. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda harakat ko'nikmalarini hosil qilish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash. | 3 | A | 2 |
| 11 | Katta va tayyorlov guruhlarda jismoniy tarbiya mahg'ulotlarini o'tkazish. | Katta va tayyorlov guruhlarda jismoniy tarbiya mahg'ulotlarini o'tkazish va tahlil qilish. | 3 | A | 2 |
| 12 | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yozgi sog'lomlashtirish mavsumini tashkil etish | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yozgi sog'lomlashtirish mavsumini tashkil etish. Tarbiyalanuvchilarni salomatligini mustahkamlash, to'g'ri ovqatlanishni tashkil etish. | 3 | A | 2 |
| 13 | Yozgi sog'lomlashtirish mavsumi uchun tahminiy kun tartibini guruhlar bo'yicha tahlil qilish | Kun tartibi asosida jismoniy sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni (badantarbiya mashqlari, mashg'ulotlar, harakatli o'yinlarni tahlil qilish. | 3 | A | 2 |
| 14 | Yozgi mujassam mavzuli | Bolalar uchun bayram tadbirlari;sport | 3 | A | |

| | | | | | |
|----|---|--|-----------|---|-----------|
| | rejalashtirish | musobaqalari; Yoz mavsumida kitoblar o'qish; rasm va ko'rgazmalardan foydalanish; "Yoz o'tmoqda soz" mavzularda tadbirlarni rejalashtirish. | | | |
| 15 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni chiniqtirish | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chiniqtirish turlari: quyosh, suv va havo vannalarini tashkil etish, (artinish, suv quyish, dush, cho'milish) va quyosh vannalaridan foydalaniladi. | 3 | A | 2 |
| 16 | "Akvamed" o'yin va mashqlarni tashkil etish | Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida suv o'yinlarini tashkil qilish. | 3 | A | 2 |
| 17 | "Qum o'yinlari" | Qum o'yinlarini tashkillashtirishni va tayyorgarlik ko'rish | 3 | A | 2 |
| | Jami | | 60 | | 30 |

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi. Baholash usullari og'zaki, yozma, test, individual vazifalar, kichik guruhlar tomonidan bajarilgan topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

4 Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 may PQ 4312 qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari". 2018 yil 18 iyundagi 1-mh son qarori.
3. M.X.Tadjiyeva; S.I.Xusanho'jayeva "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi". Qo'llanma.- Moliya-iqtisod. 2013y\
4. "Sog'lom avlod dasturi". Qo'llanma. - T,: 2000
5. M.K.Mahkamjonov. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" Ma'ruza matni, qo'llanma.- Toshkent-2000y.
6. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yozgi sog'lomlashtirish mavsumini tashkil etish"- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi; Toshkent shahar maktabgacha ta'lim Bosh boshqarmasi - Toshkent 2019.
7. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti . 2020 yil

Internet manbaalari

1. www.ziyonet.uz
2. www.ped-kopilka.ru
3. www.resobr.ru
4. www.maam.ru/detskijsad/
5. www.tdpu.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIMNING

**40110102.- Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
kasbi bo'yicha**

Pedagogik amaliyotidan

O'QUV DASTURI

| | |
|--------------------------------------|------------|
| Kvalifikasiya nomi: | Tarbiyachi |
| O'quv rejadagi tartib raqami: | 2.1.15 |
| Ajratilgan soat: | 360 |

Toshkent – 2022

O'quv dasturi pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti pedagogika 110 000 sohasi yo'nalishlari bo'yicha o'quv metodik birlashmasining 2022 yil " 29 " avgustdagi 6- sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.**

| | | |
|----------------------|-------------------|---|
| Tuzuvchi: | Abduvaliyeva | – RAINBOW STATION nomli - NTT |
| | Marhabo Ilyasovna | uslubchisi, pedagogika fanlari nomzodi |
| Taqrizchilar: | Aripova Sayyora | – Toshkent pedagogika kolleji |
| | Mirsoatovna | maxsus fanlar kafedrası |
| | | o'qituvchisi |
| | Mo'minova Nargiza | – MTMRMQTMOI-Maktabgacha va |
| | Sabitdjanovna | musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi |
| | Karimova Ziyoda | - RAINBOW STATION nomli - NTT direktori |
| | Ulug'bekovna | |

I.O'quv dasturining umumiy talablari

| | |
|--|--|
| Dastur nomi | Pedagogik amaliyot |
| Ajratilgan soat | 360 |
| Mavzular soni | 60 |
| Dasturning maqsadi | Pedagogik amaliyot o'quvchilarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, ularni qo'llash uslublari bilan tanishtirish, kasbiy mahorat va malakalarini shakllantirish va o'stirishdan iboratdir. |
| O'zlashtirish (o'qitish) natijalari | <ul style="list-style-type: none"> - "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga quyiladigan Davlat talablari", "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida berilgan vazifalar asosida turli yosh guruhlarida kun tartibini tashkil etishni kuzatadi va o'tkazadi; - "Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim" asosida ish olib boradi; - nazariy bilimlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaydi, ilg'or tarbiyachilarning tajribalariga bog'laydi, tahlil qiladi; - amaliyot jarayonini didaktik tamoyillar asosida tashkil etadi; - MTT jarayoni va oila muhitini o'rganish va uni tahlil qiladi; - kasbiy bilim, ko'nikmalarni kengaytiradi, amaliyotda qo'llaydi, mustahkamlaydi; |
| Bilimlar | <ul style="list-style-type: none"> - "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ni; - "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida sohalar bo'yicha rejalashtiriladigan ishlar mazmunini, mashg'ulotlarni rejalashtirish va tanlashni; - "MTMda bolalarning hayoti va sog'ligini muxofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom"ni; - bolalarga beriladigan ovqatlar resepti va tayyorlash texnologiyasini; - turli yosh guruhlarda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish mazmunini; - rivojlanish xaritasini yuritishni, yakka ishlash yo'llarini; - kun tartibini o'tkazishni, turli yosh guruhlarda bir kunlik ish rejasini mazmunini bilishi. |
| Ko'nikmalar | <ul style="list-style-type: none"> - mashg'ulot o'tkazishda tarbiyachiga yordamlashish, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturidan va ta'limiy jarayonni rejalashtirishdan foydalanish; - turli yosh bosqichidagi bolalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish; - oylik ish rejasi bo'yicha kun tartibini tashkil etishda tarbiyachiga ko'maklashish; - ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim berish vositasi sifatida o'yin turlaridan foydalanish; - guruh xonalari, maydonchada sanitariya-gugiyena meyorlari |

| | |
|---|---|
| | talablariga rioya qilish, o'yinchoqlar va jihozlarni toza saqlash; - birgalikda tadbirlarga tayyorlanish, ssenariylar tuzish, musobaqalar tashkil etish, bolalar bilan ishlash; - ota-onalar bilan ishlashni mustaqil bajara olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. |
| O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fanning nomi | Umumkasbiy fanlar, maxsus fanlar, o'quv amaliyotlari |
| O'qitishning tashkiliy shakli | A-amaliy mashg'ulot |
| Dasturga qo'yilgan talab | Majburiy |
| O'qitish tili | Guruhga tayinlangan dars tili asosida |
| Baholash tartibi | Joriy baholash tartibiga asoslanib |
| O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash | Og'zaki, yozma, test, individual va amaliy topshiriqlar (mashg'ulotlar tashkil etish, rivojlanish markazlarida ishlash, kun tartibi, yakka ishlash vblar bo'yicha) bajarish |

Pedagogik amaliyot rahbarlariga qo'yiladigan talablar

Amaliyotga jalb etilgan o'quvchilarga yo'riqnoma berish;
Amaliyotchilarni ish joyiga, MTTga joylashtirish va ularning pedagogik faoliyatiga metodik rahbarlik qilish va nazoratini olib borish;
Yo'l harakati va mehnat xavfsizligi haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
Amaliyotchining bolalar bilan tashkil qilgan ishlarini kuzatadi, ishini tahlil qiladi, tarbiyachi va uslubchi bilan kelishgan holda baholaydi;
Amaliyotchilarning kundalik daftarlarini nazoratini olib borish;
Amaliyotchilar bilan birgalikda ochiq mashg'ulotlarni tashkil etish;
O'quv jurnallarini talab darajasida yuritish va o'quvchilarni baholash;

Kollej o'quvchi – amaliyotchilarga qo'yiladigan talablar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ichki tartib qoidalariga rioya qilish va rahbariyatning barcha ko'rsatmalarini bajarishi,
Xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilishi;
Intizomlikda va mehnatsevarlikda, hushmuomalalikda boshqalarga namuna bo'lish;
Pedagogik amaliyot dasturiga oid barcha ishlarni bajarish;
Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy - tarbiyaviy ishlarni olib borishda jiddiy tayyorgarlik ko'rish;
Mashg'ulotlarga ishlama tuzib maxsus fan o'qituvchisi, MTT uslubchisi, tarbiyachiga ko'rsatib, tasdiqlatib mashg'ulotlarni o'tkazish;
Pedagogik amaliyot jadvaliga tegishli hamma mashg'ulotlarda ishtirok etish, ularning muhokamasida faol qatnashish, qabul qilingan qoidalariga ko'ra ish hujjatlarini yuritish.

2. O'quv dasturi mazmuni

| t/r | Amaliy mashg'ulot mavzusi | Mavzuning qisqacha mazmuni | Jami | O' qitis hning tashkiliy | Mustaqil ta' lim |
|-----|---|--|------|--------------------------|------------------|
| 1 | <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlari maydonchalari, xonalari, jihozlanishi, ish uslublari bilan tanishtirish, guruhlarga bo'linish. Sog'lom avlodni tarbiyalash uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishish.</p> | <p>Pedagogik amaliyot mazmuni va amalga oshirish haqida suhbat, topshiriq berish va bajarish uchun: Har bir guruh xonalari bilan tanishish; guruhlarni mebel va boshqa jihozlari bilan ta'minlanishi va bolalar yoshiga mosligi; har bir yosh guruhga tanlangan o'yinchoq va boshqa jihozlar bilan ta'minlanishi.</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hovlisi, uning tozaligi, gulzor va daraxtlarning joylashishi, ekologik talablarga javob berishi (sport maydonchasi, basseyn, yugurish yo'lkalari). Guruhlarda ozodalikka rioya qilinishi – xonalarni ozodaligi, havosini yangilab deraza va deraza darchalardan foydalanish, xonalarda bolalarga mo'ljallangan mebelni bolalar yoshiga mosligi, yotoqlarda yaratilgan shart-sharoitlar (uxlash jihozlarini gigienik holati), ovqatlanishga ishlatiladigan jihozlarni ozodaligi (piyola, kosa, qoshiq, va h.k.) Jismoniy tarbiya xonalarni (zalni) sport buyumlar bilan ta'minlanishi (bolalar soniga qarab), sport maydonchasi va basseynlarning tozaligi; Guruhlarda yil boshidan shamollash, infeksiyon kasallik, anemiya va boshqa kasalliklarni kelib chiqishi, ularni bartaraf etish yo'llarini (fizoterapiya, chiniqtirish va h.k.) Guruhdagi bolalarni ota-onalari bilan tanishish.</p> | 6 | A | 3 |
| 2 | <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibini tashkil etilishini o'ziga hos xususiyatlarini aniqlash. Tarbiyachining amaldagi ish xujjatlari bilan tanishish.</p> | <p>Kun tartibini o'tkazishni kuzatish. MTT dasturida ko'rsatilgan kun tartibiga mosligi; ovqatlanish, uyqu, o'yin, mashg'ulot, sayrlarni vaqtida o'tilishi, ularga ajratilgan vaqtlarni buzilmasligi; kun tartibini jadvalini chizish. Har bir yosh guruhni kun tartibini o'ziga xosligi. Bolalarni faol va faol bo'lmagan holatlarini</p> | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|---|--|--|---|---|---|
| | | <p>almashib turilishi. Tarbiyachining amaldagi ish hujjatlari bilan tanishish.</p> <p>O`zbekistonni poytaxti Toshkent haqida savollar: Toshkentni mustaqillik maydoni, ma'muriy binolar, favvoralar, shox ko`chalari; mashg`ulot –turli yosh guruhlarda “Mening shahrim” mavzusida suhbat. Texnik vositalardan foydalanib “Toshkent” haqida vidiofilm va ashulalarni qo`yib berish. Qabul vaqtida ota-onalar bilan tanishishni davom etish. Ular uchun kun tartibi haqida “Ota-onalar uchun maslahat” faollik markazini jixozlash.</p> | | | |
| 3 | Turli yosh guruhlarida kun tartibini kuzatish va sensor rivojlanish sharoitlari bilan tanishish. | <p>Ularning jismoniy rivojlanishi; faol va faol bo`lmagan holatlarini kuzatish; ularni o`zaro munosabatlari va madaniy gigienik ko`nikmalari darajasini aniqlash: Ertalabki soat, badan tarbiya. Nonushta. Mashg`ulot, sayr. Buyumlar va o`yinchoqlarni shakli, rangi, katta-kichikligiga qarab ajratish; Buyum va o`yinchoqlarni ketma-ket shakli, kattaligiga qarab turli o`yinlarni o`ynash; Rasmga qarab buyum va o`yinchoqni ikkinchi yarmini topish (yarimta olma, koptok, qo`lpop va h.k.) Bolalar bilan “Menga o`xshab qil”, “Shunga o`xshashini top” o`yin o`tkazib sensor holatini aniqlash;</p> | 6 | A | 3 |
| 4 | Bolaning rivojlanish sohalari bo`yicha kompetensiyalarini aniqlashni o`rganish. | <p>Turli yosh guruhlarida bolalarning jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq,muloqat,o`qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish sohalari bo`yicha kompetensiyalarini aniqlash. Rivojlanish xaritalarni yozish ishlarida tarbiyachiga yordamlashish, o`rganish.</p> | 6 | A | 3 |
| 5 | Bolalarda madaniy-gigienik malaka va ko`nikmalarni hosil qilishni kuzatish, bolalar sog`lig`ini nazorat qilish | <p>Turli yosh guruhlarda madaniy-gigienik ko`nikma va malakalarni mustaqil bajarishlarini tahlil qilish. Turli guruhlarda madaniy-gigienik ko`nikmalarni bajarish uchun</p> | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | <p>yaratilgan sharoitlarni o`rganish (yuvinish xonalari, yechinish xonalari, bolalar soniga qarab sochiqlar, idish tovoqlar, yotishga moslangan xonalar): bolalarda hosil etilgan madaniy ko`nikmalar darajasini va hajmini o`rganish (ozodalik, ovqatlanish, xonalarda ozoda va tartibli saqlash, bolalar va kattalar bilan munosabatlari). Bolalar sog`lig`ini nazorat qilish, bola shikastlanganda yoki boshqa holatlarda birinchi tibbiy yordamni ko`rsatish. Madaniy-gigienik ko`nikmalarni tarbiyalashda ota-onalar bilan suhbat o`tkazish.</p> | | | |
| 6 | <p>Bolalar o`rtasida o`zaro ijobiy munosabatlarni rivojlantirish, kattalar mehnatiga qiziqish va hurmat hissini shakillantirish</p> | <p>Bolalar o`rtasida o`zaro ijobiy munosabatlarni rivojlantirish, bolaning tengdoshlari bilan yuzaga kelgan ziddiyat va muammolarni hal etish. Turli yosh guruhda kasb egalari nisbatan hurmat hissini tarbiyalash va ularning mehnatini qadrlashga o`rgatuvchi suhbat tashkil qilish. Bolalar bilan enaga, oshpaz, bog`bon, kir yuvichining ishini kuzatish. Ota-onalarga o`zlari qilayotgan mehnatlari haqida farzandlariga tushuncha berishlari va ularning mehnatini hurmat qilishlariga o`rgatish.</p> | 6 | A | 3 |
| 7 | <p>Turli yosh guruhlarda ertalabki badantarbiyani tashkil etish va o`tkazish.</p> | <p>Ertalabki soatni tashkil etish. Buyumlar (buyumlarsiz) bilan bajariladigan ertalabki badantarbiya mashqlarini mustaqil ravishda tashkil etish. Hafta mavzusi bo`yicha bolalar bilan ishlashda tarbiyachiga yordam berish. Rivojlanish markazlarini tashkil etilishini kuzatish va tarbiyachi bilan birgalikda jihozlash.</p> | 6 | A | 3 |
| 8 | <p>Kun tartibini mustaqil o`tkazish. Sayrda harakatli o`yinlarni tashkil etish.</p> | <p>Ertalab bolalarni qabul qilish bo`yicha ish olib borishini davom ettirish. Nonushta uyushtirish, ovqatlanish ma`daniyatiga etibor berish (qoshiq, sanchqi, piyola, nonni to`g`ri ushlab, ovoz chiqarmasdan, to`kmasdan gapirmasdan ovqatlanish) Guruhiy mashg`ulotni va bolalar faolligini</p> | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|----|---|---|---|---|---|
| | | kuzatish, tarbiyachiga ko'maklashish. Sayrda xarakatli o'yinlarni tashkil etish. | | | |
| 9 | Kunning birinchi yarmida sayrni o'tkazish, sayrning maqsad va vazifalarini aniqlash. | O'yinchoqlarni maqsadga muvofiq olib chiqish, sayrni tog'ri tuzish, bolalarni faol va faol bo'lmagan holatlarini hisobga olish, sayrga bolalarni mustaqil faoliyat uchun mazmunli o'yinchoqlar, niqoblarini olib chiqish; sayrda bolalarni xavfsizligini hisobga olish; bolalarni sayrdagi mustaqil faoliyatini kuzatish; Oilada bolalarni o'yinlariga e'tibor berish, bolalarning yoshiga qarab o'yinlar tashkil etish. | 6 | A | 3 |
| 10 | Turli yosh guruhlarida nutq o'stirish mashg'ulotlarini kuzatish. | Guruhiy nutq o'stirish mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish. Bolalarni so'z boyligini aniqlash. Mashg'ulot so'zlarini aniq talaffuz etishi, rasmga qarab bolalarni gapirib berishlarini tahlil qilish. Bolalarga ertak, hikoya va she'rlardan ifodali o'qib berish. | 6 | A | 3 |
| 11 | Turli yosh guruhlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotini kuzatish. | Mashg'ulotni tahlil qilish. Umumrivojlantiruchi va asosiy harakat mashqlarni bajarish. Qoidali-harakatli o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish. | 6 | A | 3 |
| 12 | Kun tartibini mustaqil o'tkazish, bolalarda madaniy-gigienik ko'nikmalarni shakllantirishni davom ettirish. | Shaxsiy gigiena (qo'lni sovun bilan yuvish, tirnoqlarni tozalash, iflos qo'l bilan ovqatlanmaslik, qo'l, oyoq va badan uchun foydalaniladigan sochiqlarni farqlash, kiyimlarni toza saqlash); nonushtani mustaqil o'tkazish; bolalarni stol atrofida to'g'ri o'tirish, ovqatlanish madaniyatiga o'rgatish (qoshiq, vilka, piyoladan to'g'ri foydalanish va oqizmasdan, sochmasdan ovqatlanish); Sayrda bolalar bilan milliy o'yin o'tkazish; tabiat hodisalari bilan tanishtirishni davom ettirish, qish fasli bilan tanishtirish (qishda kunlar sovuq bo'lishi, quyoshni kamroq isitishi). | 6 | A | 3 |
| 13 | Yosh guruhlarida ta'lim faoliyati mazmunida rejalashtirilgan ta'lim sohalari bilan tanishib | Turli yosh guruhlarida o'zaro bog'liq o'xshash mavzularni kiritilishi, ularning individual imkoniyatlariga muvofiq uyg'un rivojlanishini tahlil | 6 | A | 3 |

| | | | | | |
|----|---|---|---|---|---|
| | chiqish. | qilish. Turli yosh guruhlaining ta'lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish dasturlari bilan tanishib chiqish. | | | |
